


SHOKIR JALILOV

**MUSIQA NAZARIYASI
(SOLFEDJIO)**



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

**JALIOV SHOKIR ISOMIDDINOVICH
MUSIQA NAZARIYASI
(SOLFEDJIO)**

Pedagogika institutlari 5111100 – musiqa ta`limi bakalavriyat
yo`nalishi talabalari uchun o`quv qo`llanma

**Buxoro-2022
“KAMOLOT” NASHRIYOTI**

784.9(075.8)

J 21

Jalilov, Shokir Isomiddinovich Musiqa nazariyasi (Solfedjio) [Matn] : o'quv qo'llanma / Sh.I. Jalilov.- Buxoro: "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2022.-192 b.

UO'K 784.9(075.8)
KBK KBK 85.31ya73

Ushbu o'quv qo'llanmada solfedjio darslarida o'quv dasturi asosida o'tiladigan mavzular nazariy va amaliy jihatdan yoritib berilgan hamda mavzularni o'rganish yuzasidan metodik tavsiyalar keltirilgan. Qo'llanmaning amaliy qismini tuzishda o'zbek va jahon xalqlari milliy kuy-qo'shiqlari hamda o'zbek va jahon kompozitorlari ijodidan keng foydalanilgan. Undagi asarlarning ritmik jihatdan murakkablashib borishiga ko'ra oddiydan murakkabga tomon tamoyili asosida joylashtirilganligi va qo'llanmaning ilovalar qismida didaktik materiallar berilganligi mustaqil tarzda ijodiy fikr yuritish hamda o'quv materialini osonroq o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Mazkur o'quv qo'llanma 5111100 – musiqa ta'limi bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, u o'z ichiga solfedjio va musiqa nazariyasi kurslarini qamrab olgan. O'quv qo'llanma musiqiy ta'lim sohasining bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv reja va o'quv dasturlari talablari asosida yozilgan.

Taqrizchilar:

S.B.Saidiy, san'atshunoslik fanlari nomzodi, NavDPI Musiqa ta'limi kafedراس professori.

Q.D.Panjiyev, san'atshunoslik fanlari nomzodi, Nizomiy nomidagi TDPU Musiqa madaniyati fakulteti Musiqa nazariyasi va metodikasi kafedراس dotsenti.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 25-dekabrda 538-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943-8092-7-7

© **Jalilov Shokir Isomiddinovich**

KIRISH

Yosh avlodni estetik jihatdan tarbiyalash barkamol avlod tarbiyasining ajralmas tarkibiy qismi bo`lib, u yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda, mustaqil fikrlaydigan, har tomonlama yetuk shaxs bo`lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega. Musiqiy–estetik tarbiya yosh avlodning ma'naviy qiyofasini shakllantirish, ularni chinakam vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida tarbiyalash, ular ruhiyatida ma'naviy immunitetni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Musiqiy–estetik tarbiya ko`plab musiqiy hamda musiqiy-pedagogik fanlar vositasida amalga oshiriladi va shulardan biri solfedjio fani hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2018 yil, 6-sentyabrda Shahrisabz shahrida bo`lib o`tgan Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqida: “Agar biz asl, haqiqiy san'atni bilmoqchi, o`rganmoqchi bo`lsak, avvalo mumtoz maqom san'atini ko`tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o`tib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”¹ - deb, milliy musiqamizning yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini yuksak baholagan edi. Darhaqiqat, o`zbek milliy musiqasidagi yorqin milliy kolorit, janrlar rang-barangligi, mazmunning o`ta chuqur va teranligi, badiiy mukammallik, xalq qo`shiqalaridagi samimiyat, oddiylik, ma'naviy–estetik ideallar yoshlar ongiga, tarbiyasiga chuqur emotsional ta'sir ko`rsatadi. Solfedjio darslarida o`qituvchi talabalarda milliy musiqamizga, o`zbek kompozitorlari va jahon klassik kompozitorlarining musiqalariga muhabbatni tarbiyalaydi. Shu bilan birga talabalarni qardosh va jahon xalqlarining milliy musiqalari bilan tanishtirib borish ularning musiqiy bilimlarini, dunyoqarashlarini yanada boyitadi. Solfedjio fani ularning musiqiy eshitish qobiliyatlarini, musiqiy xotiralarini, notaga qarab kuylash malakalarini, ritmni his etish qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda ularni musiqa san'atining nazariy asoslari bilan tanishtirib, ularda dastlabki ijodiy

¹ Mirziyoyev Sh.M. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018 yil, 6-sentyabrdagi Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. T., - 2018.

qobiliyatlarning shakllanishiga va rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, solfedjio darslarida olingan bilim, ko`nikma va malakalar talabalarga turli cholg`ularda kuylarni ijro etishlarida, vokal, xor, musiqā nazariyasi, musiqā adabiyoti, garmoniya, polifonoya va boshqa musiqā fanlarini o`zlashtirishlarida amaliy vosita bo`lib xizmat qiladi.

Ushbu o`quv qo`llanma pedagogika institutlarining 5111100 - musiqā ta`limi yo`nalishida ta`lim olayotgan talabalar va solfedjio fani o`qituvchilari uchun mo`ljallangan bo`lib, u hozirgi paytda ishlatilayotgan solfedjio darsliklariga ilova sifatida qo`llanilishi mumkin. Shuningdek, uni pedagogika institutlarining cholg`u ijrochiligi va vokal san`ati ta`lim yo`nalishlarida o`tiladigan solfedjio darslarida ham qo`llash mumkin.

O`quv qo`llanmaning tuzilishi nazariy qism, amaliy qism, metodik tavsiyalar hamda ilovalar deb nomlangan to`rtta qismdan iborat. Metodik tavsiyalar qismida solfedjio fanining tarkibiy qismlari haqida batafsil ma`lumotlar berilgan va har bir tarkibiy qismning vazifasi, ularni bevosita solfedjio darslarida qanday qo`llash mumkinligi haqida metodik tavsiyalar berilgan.

O`quv qo`llanmaning nazariy qismiga 5111100 - Musiqā ta`limi yo`nalishi talabalari uchun musiqā nazariyasi (musiqā nazariyasi asoslari, garmoniya, musiqā asarlari tahlili, solfedjio) fanidan 2020-2021 o`quv yili uchun tayyorlangan namunaviy dasturda fanning solfedjio kursi bo`yicha laboratoriya mashg`ulotlari uchun tavsiya etilgan mavzular hamda har bir mavzu uchun alohida tayyorlangan metodik dars ishlanmalari kiritildi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ushbu metodik ishlanmalardan solfedjio fanidan dars o`tadigan fan o`qituvchilari ijodiy ravishda foydalanishlari mumkin. Shuningdek, ulardan talabalar ham mustaqil tarzda foydalana oladilar.

O`quv qo`llanmaning amaliy qismi ko`proq milliy kuy-qo`shiqlar, qardosh xalqlar hamda jahon xalqlari milliy musiqalari, maktab musiqā darslari repertuariga xos bo`lgan bolalar musiqā asarlari, o`zbek va jahon kompozitorlarining asarlari hamda ulardan olingan qismlardan tuzildi. Unda tavsiya etilayotgan kuylar kuychanligiga, ifodaviyligiga, janr va ritmik jihatdan turli-tumanligiga ko`ra tanlab olindi. Amaliy qismdagi kuylar ritmik xususiyatiga ko`ra ketma-ket joylashtirilgan bo`lib, oldin oddiy o`lchovdagi kuylar, so`ngra esa murakkab, aralash

o`lchovdagi kuylar berilgan. Har bir o`lchovdagi kuylar intonatsion-ritmik jihatdan asta-sekin murakkablashib boradi. Bu o`quv materialini o`zlashtirishda ancha qulaylik tug`diradi. Shuningdek, o`lchovlar o`zgarganda har bir o`lchovga mos bo`lgan ritmik mashqlar berilgan bo`lib, ushbu ritmik mashqlarni berilgan kuylarni kuylashdan oldin bajarish yaxshi samara beradi. Amaliy qismning oxirida ikki ovozli kuylar va garmonik solfedjio uchun ko`p ovozli misollar berilgan bo`lib, ular ko`proq 14- va 17- mavzularni o`zlashtirish uchun mo`ljallangan.

Ilovalar qismiga oddiy va murakkab o`lchovlarda dirijyorlik qilish sxemalari, tonallik va ladga sozlanish uchun tavsiya etiladigan mashqlar, Maqom pardalari jadvali, qo`llanmadagi ba`zi kuylarda berilgan akkordlarning shartli belgilanishi haqidagi ma`lumotlar, fan bo`yicha test topshiriqlari va glossariy kiritilgan. Ilovada keltirilgan ushbu ma`lumotlardan har bir dars strukturasi mos ravishda ijodiy foydalanish mumkin.

O`quv qo`llanmani tayyorlashda ko`plab ustozlar tomonidan yozilgan darslik va o`quv qo`llanmalardagi asarlardan, ma`lumotlardan foydalanildi. Buning uchun ushbu adabiyotlar mualliflari O`qilxon Ibrohimov, Ravshan Yunusov, Nodira Rajabova kabi ustozlarimizga hamda S. Matyoqubova, O. Azizov, B. Kalmikov, G. Fridkin, I. Sposobin, A. Agajanov, A. Ostrovskiy, S. Solovyov, V. Shokin, Ye. Davidova, I. Karagicheva, D. Blyum, B. Alekseyev, A. Myasoyedov, V. Vaxromyev, K. Vasilyeva, M. Gindina, G. Freyndling va boshqa mualliflarga, ushbu fanning yetuk mutaxassislariga chuqur minnatdorchiligimni izhor etaman.

NAZARIY QISM

5111100 - Musiq a ta'limi yo`nalishi talabalari uchun musiq a nazariyasi (musiq a nazariyasi asoslari, solfedjio, garmoniya, musiq a asarlari tahlili) fanidan 2020-2021 o`quv yili uchun tayyorlangan namunaviy dasturda fanning solfedjio kursi bo`yicha laboratoriya mashg`ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etilgan²:

1-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Solfedjio kursi ish shakllari – Intonatsion mashqlar kuylash, solfedjiolash, notanish notali matnni o`qib kuylash, tinglab aniqlash, musiqiy diktant yozish.

2-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Major ladida ishlash.

3-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Minor ladida ishlash.

4-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Parallel va nomdosh tonalliklarda ishlash.

5-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Transpozitsiya qilib kuylash.

6-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Oddiy va tarkibli intervallarni tovushdan va tonalliklarda tuzib, yechilishlari bilan kuylash.

7-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Xarakterli intervallarni tovushdan va tonalliklarda tuzib, yechilishlari bilan kuylash.

8-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Xromatik intervallarni tonalliklarda tuzib, yechilishlari bilan kuylash.

9-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Diatonik sekvensiyalar tuzib, kuylash.

10-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Uchtovushliklar va ularning aylanmalarini tovushdan tuzib, kuylash.

11-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Ladning asosiy uchtovushliklari va ularning aylanmalarini tovushdan va tonalliklarda tuzib, yechilishlari bilan kuylash.

² 5111100 - Musiq a ta'limi yo`nalishi talabalari uchun musiq a nazariyasi (musiq a nazariyasi asoslari, solfedjio, garmoniya, musiq a asarlari tahlili) fanidan 2020-2021 o`quv yili uchun tayyorlangan namunaviy dastur. T., - 2020.

12-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Ladning asosiy septakkordlari va ularning aylanmalarini tovushdan va tonalliklarda tuzib, yechilishlari bilan kuylash (dominantseptakkord, yetakchi septakkord va subdominantseptakkordlar).

13-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Bir ovozli kuylar ustida ishlash.

14-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Ikki ovozli misollar ustida ishlash.

15-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Diktant yozish (melodik - bir ovozli va ikki ovozli diktant, garmonik – intervalli yoki akkordli diktant, ritmik diktant, og`zaki diktant va h.k.)

16-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Xalq ladlari ustida ishlash.

17-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Garmonik solfedjio – akkordlar ketma-ketliklari ustida ishlash.

18-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Major va minor ladi asosiy uchtovushliklari.

19-laboratoriya mashg`uloti mavzusi: Major va minordan birinchi darajali o`xshash tonalliklarga modulyatsiya qilingan melodik va garmonik misollar ustida ishlash.

Ushbu mavzular bo`yicha laboratoriya mashg`ulotlarini tashkil etish maqsadida, har bir mavzu uchun alohida metodik tavsiyalar taklif etilmoqda.

MAVZULAR BO`YICHA NAZARIY MA`LUMOTLAR VA METODIK TAVSIYALAR

**1-MAVZU: SOLFEDJIO KURSI ISH SHAKLLARI –
INTONATSION MASHQLAR KUYLASH,
SOLFEDJIOLASH, NOTANISH NOTALI MATNNI
O`QIB KUYLASH, TINGLAB ANIQLASH,
MUSIQIY DIKTANT YOZISH.**

Tayanch so`zlar: intonatsion mashqlar, lad, tonallik, gamma, interval, akkord, sekvensiya, ovoz diapazoni, xor bo`lib kuylash, tonal sekvensiyalar, solfedjio qilib kuylash, metro-ritmik xususiyatlar, “Sibelius” nota dasturi, a`capella.

Solfedjio darslarining muhim tarkibiy qismlaridan biri vokal-intonatsion mashqlar hisoblanadi. Vokal-intonatsion mashqlar deganda odatda turli lad va tonallikdagi gammalarni, intervallarni, akkordlar va ularning aylanmalarini, sekvensiyalarni kuylash kabi mashg`ulotlar tushuniladi. Bu mashg`ulotlar talabalarning ichki eshitish qobiliyatlarini, turli lad ohanglarini va kuyning garmonik ogangini eshitib his etish qobiliyatlarini shakllantiradi hamda talabalarni notaga qarab kuylash, kuyni eshitib notaga tushirish, tinglab tahlil qilish kabi mashg`ulotlarga tayyorlaydi. Shuningdek, intonatsion mashqlardan talabalarning ovoz diapozonlarini kengaytirish vositasi sifatida ham foydalanish mumkin.

Vokal-intonatsion mashqlar jarayonida tovushlarning sof ovozda kuylanishiga, to`g`ri nafas olinayotganligiga va kuylashning boshqa sifat ko`rsatkichlariga alohida e`tibor berish o`ta muhim ahamiyatga ega. Dastlabki mashg`ulotlarda intonatsion mashqlarni xor bo`lib, guruhlariga bo`lingan holda kuylatib, keyinchalik esa ularni individual tarzda kuylatishga o`tish mumkin. Vokal-intonatsion mashqlar dastlabki mashg`ulotlarda sekinroq tempda, erkin ritmda kuylangani holda, keyingi mashg`ulotlarda tempni bosqichma-bosqich tezlashtirib, mashqlarni ham turli ritmlarda kuylatish tavsiya etiladi. Mashqlarni berilgan tovushdan

ham, biror aniq ladda ham kuylatish lozim. Muayyan ladda kuylanadigan intonatsion mashqlarga major va minor gammalarini kuylash, ladning alohida pog`onalarni, ulardan tuzilgan kuy tuzilmachalarini, tonal sekvensiyalarni, laddagi intervallar va akkordlarni kuylash kabi mashqlar kiradi. Laddagi intonatsion mashqlar bilan bir vaqtda tovushlardan turli intervallarni va akkordlarni kuylash kabi intonatsion mashqlarni ham bajarib borish lozim.

Darsni ko`rgazmali ravishda tashkil etish uchun turli ko`rgazmali qurollardan, videoprojektor orqali qo`yiladigan slaydlardan foydalanish va bunda pog`onalarni alohida rim raqamlari bilan tasvirlash, ularni balandligiga ko`ra zinapoyalar shaklida tasvirlab, nota cho`zimlarini esa turli uzunlikda o`lchangan gorizontal chiziqlar bilan tasvirlash va turli rangli tablitsalardan foydalanish kabi metodlar yaxshi samara beradi. Shuningdek, kompyuterda “Sibelius” nota dasturidan foydalanilsa va bu dasturdan talabalar mustaqil mashg`ulotlarda ham ijodiy foydalanishsa yanada yaxshiroq natijaga erishish mumkin.

Vokal intonatsion mashqlar odatda darsning boshlanishida, ovoz sozlash mashqlaridan keyin, solfedjio qilib kuylashdan oldin kuylanadi. Darsda intonatsion mashqlarga ko`p vaqt ajratish tavsiya etilmaydi, chunki u asosiy mashg`ulot turlarini o`zlashtirishga yordam beruvchi vosita va ularning muqaddimasi hisoblanadi. Lekin intonatsion mashqlar har bir darsda muntazam tarzda bajarilishi va talabalarning o`zlashtirish darajasiga ko`ra rivojlantirib borilishi lozim.

Kuylarni solfedjio qilib kuylash solfedjio darsining asosiy mashg`ulot turi hisoblanadi. Kuylarni solfedjiolashda sof ovozda kuylash malakasi, intonatsion aniqlik, musiqa matniga ongli munosabat, ladni his etish, ritmni his etish kabi malakalar shakllanadi. Solfedjio qilib kuylash mashg`uloti fanni o`qitish jarayonida uzluksiz tarzda davom etadi. Solfedjiolashda notaga qarab sof ovozda, to`g`ri metro-ritmda, ifodali tarzda kuylashga erishish asosiy maqsad qilib olinadi. Bunda dastlabki

mashg`ulotlarda oldin eshitib, o`rganib olingan kuylar sof ovozda kuylanadi, keyinchalik esa notanish, yangi kuylar yoki qo`shiqlarni sof ovozda kuylash mashq qilinadi. O`quv qo`llanmadagi kuylarni notaga qarab kuylashda, musiq a asarlarini tinglab, tahlil qilishda hamda musiq a diktantini yozishda musiq a asarlarining o`lchovini, uning metro-ritmik xususiyatlarini his etish uchun talabalar kuylayotganda, tinglayotganda yoki diktant yozayotganda albatta dirijyorlik qilishlari zarur. Mashg`ulotda o`qituvchi talabaning sof ovozda to`g`ri kuylayotganligini nazorat qilish bilan bir vaqtda, uning dirijyorlik harakatlarini ham to`g`ri bajarayotganligini kuzatib borishi tavsiya etiladi.

Kuylarni solfedjio qilib kuylash mashg`ulotlarida talabalarning umumiy ovoz diapazonini hisobga olish va shunga qarab repertuar tanlash muhim ahamiyatga ega. Chunki, talabalarning biror tovushni kuylashga ovoz diapazoni yetmay qolsa, u o`sha tovushni notoza (falsh) kuylashi yoki o`zini majburlash oqibatida ovoz paychasini shikastlantirishi mumkin. Shuningdek, o`qituvchi mashg`ulotda har bir tovushning melodik va ritmik jihatdan to`g`ri kuylanayotganligiga, talabaning to`g`ri o`tirib, to`g`ri nafas olayotganligiga ham e`tibor qaratishi lozim.

Solfedjio darslarida kuylar asosan jo`rsiz (a`capella.) kuylanishi lozim. Lekin dastlabki mashg`ulotlarda yangi o`rganilayotgan kuylarni fortepiano bilan bir ovozli jo`rlikda, nisbatan o`zlashtirilgach esa akkordlar yordamida faqat garmonik jo`rlikda kuylatish mumkin. O`zlashtirilgan kuylarni talabalar jo`rsiz sof ovozda ayta olishlari lozim. Keyinchalik yangi o`zlashtirilayotgan kuylar ham jo`rsiz ijro etilib, faqat kuyning intonatsion jihatdan qiyin bo`lgan qismlarida yoki talabalar kuyning lad hissini yo`qotib qo`ygan holatlardagina ularga garmonik jo`rsozlik bilan, u ham yordam bermasa, melodik jo`rsozlik bilan yordam qilish mumkin.

Notaga qarab kuylash mashg`ulotning eng foydali va zarur qismi bo`lib, bunda talabalar butunlay notanish kuyni ritmik va melodik jihatdan to`g`ri kuylash ko`nikmasi va malakasini

egallaydilar. Notaga qarab kuylash tajribasi asta-sekin, bosqichma-bosqich to`planib boradi. Notaga qarab kuylash uchun dastlab talaba yetarli darajadagi eshitish qobiliyatiga, tajribaga, metro-ritm hissiga ega bo`lishi, notalar cho`zimlari va ularning sanalishini, nota cho`zimlarining turkumlanishi qoidalarini bilishi, tonallik va ladni his etish ko`nikmalariga ega bo`lishi lozim. Notaga qarab kuylashda bir notadan ikkinchisiga qarab mexanik tarzda kuylashga yo`l qo`yib bo`lmaydi. Talaba kuylayotganda kuy ritmini, tonallikni va ladni bir butun holda his etishi va shu bilan bir vaqtda ko`zi bilan o`zi kuylayotgan taktdan keyingi taktlarni o`qib ketishi, natijada esa kuyni to`xtamasdan kuylashi zarur.

Yangi kuyni kuylashdan oldin uning tonalligi, ladi, o`lchovi, ritmi, undagi sakrama harakatlar, turli ritmik va melodik nyuanlar atroflicha tahlil etilishi uning tez o`zlashtirilishida yaxshi samara beradi. Shuningdek, notaga qarab ijro etishdan oldin kuyning tonalligiga moslashish ham o`ta muhim vosita hisoblanadi. Buning uchun o`qituvchi tonallikni belgilovchi turli garmonik akkordlar chalishi, kuyning dastlabki notasini chalishi yoki kuylab ko`rsatishi mumkin.

Mustaqil ish uchun berilayotgan kuylar sinfda o`rgatilgan kuylarga nisbatan soddaroq bo`lishi lozim. Talabalarga darsda o`rgatilgan kuylarni (shuningdek, ba`zan yangi, notanish kuylarni ham) og`zaki tarzda boshqa tonallikka transpozitsiya qilib kuylab kelish vazifasini mustaqil ish sifatida topshirish ham samarali natijalarga olib keladi.

Musiqqa diktanti solfedjio darsidagi eng murakkab mashg`ulot hisoblanadi. Musiqqa diktanti yozish bilan shug`ullanganda talabalarining musiqqa bo`yicha olgan barcha bilimlari sintezlashib, o`zaro uyg`unlashadi, ularning musiqiy eshitish qobiliyatining darajasi aniqlanadi. O`qituvchi esa bu jarayonda talabalarining bilimi va eshitish qobiliyatini oshirish uchun yana qanday nyuanlar ustida alohida ishlash kerakligini bilib oladi. Musiqiy diktant talabalarga eshitgan kuyini notaga tushirishni o`rgatadi, ularning musiqiy eshitish qobiliyatini, diqqatni jamlay olish

qobiliyatini, musiqiy xotirasini rivojlantirib, musiqani idrok etishiga, chuqurroq anglashiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dastlabki mashg'ulotlarda diktant yozdirishga shoshilmaslik kerak, chunki musiqiy diktantni yozish murakkab mashg'ulot bo'lib, uni bajarish uchun alohida tayyorgarlik ko'rish, ma'lum darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish talab etiladi. Shuning uchun dastlabki vaqtlarda talabalarni diktant yozishga tayyorlovchi mashqlar bilan shug'ullantirish lozim bo'ladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Solfedjio kursning ish shakllari nimalardan iborat ?
2. Kuylarni solfedjio qilib kuylashda qanday malakalar shakllanadi ?
3. Insonning ovoz diapozoni nima ?
4. Kuyni a'capella qilib kuylash deganda qanday kuylash tushuniladi ?
5. Oddiy va murakkab o'lchovlarda nota cho'zimlarining turkumlanishi qanday bo'ladi ?
6. Notaga qarab kuylash uchun qanday tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lish lozim ?
7. Musiqqa diktanti qanday qobiliyatlarni rivojlantiradi ?

2-MAVZU: MAJOR LADIDA ISHLASH.

Tayanch so'zlar: major uchtovushligi, turg'un tovushlar, major ladi, tabiiy major, garmonik major, melodik major, uchtovushliklarning aylanmalari, katta tersiya, kichik tersiya, katta seksta, kichik seksta, yuqori ovozlar, orttirilgan sekunda.

Turg'un tovushlari (I, III, V pog'onalari) major uchtovushligini hosil qilgan lad major ladi deyiladi. Major ladi eshitilishiga ko'ra viqor va ishonch bilan yangrashi jihatidan minor ladidan farq qilib turadi. Garmonik jihatdan major ohangining hosil bo'lishi odatda katta tersiya va katta seksta intervallari bilan bog'liq. Talabalar

bilan major ladida ishlash jarayonida tabiiy, garmonik va melodik major ladlaridagi gammalarni kuylatishdan tashqari, ular bilan major ladidagi akkordlar, xususan uchtovushliklar va ularning aylanmalari ustida ishlash katta samara beradi. Major gammasidagi turg'un va noturg'un tovushlar munosabatini nazariy jihatdan o'rganib, ularni yechilishlari bilan amalda kuylash ladni amalda his etish malakasini shakllantiradi. Quyidagi misolda do-major gammasi berilgan bo'lib, unda ichi bo'yalmagan notalar turg'un tovushlarni, ichi bo'yalgan notalar esa noturg'un tovushlarni ifodalaydi:

C-dur

I II III IV V VI VII I I VII VI V IV III II I

Yuqoridagi misolda ko'rinib turganidek, laddagi har bir turg'un tovushning ikki tomonida unga u yoki bu darajada tortilib turuvchi noturg'un pog'onalar joylashgan:

C-dur

VII I II II III IV IV V VI


Tabiiy major gammasida yonma-yon turgan noturg'un tovushlarning qo'shni turg'un tovushlarga tortilish tizimi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

C-dur

T(I) II III S(IV) D(V) VI VII T(I)

Tabiiy major ladiga nisbatan VI pog'onasi yarim ton pasaytirilgan lad garmonik major ladi deyiladi. Uning asosiy xarakterli xususiyatlari VI pog'onasi bilan VII pog'onasi orasida orttirilgan sekundaning hosil bo'lishi va VI pog'onasi (subdominanta uchtovushligining tersiya tovushi) ning pasayishi

natijasida minor subdominanta (IV pog`ona) uchtovushligi hosil bo`lishidir. Garmonik majorda VI pog`onaning pasaytirilishi uning V pog`onaga tortilishini kuchaytiradi.



Tabiiy major ladiga nisbatan VI va VII pog`onalari yarim ton pasaytirilgan lad melodik major ladi deyiladi. Melodik major odatda kuyning pastga tomon harakatida qo`llaniladi, kuyning yuqoriga tomon harakatida esa kamdan kam qo`llanilishi mumkin. VI va VII pog`onalarining yarim ton pasaytirilishi natijasida melodik majorning yuqorigi tetraxordi tabiiy majordagidan farq qilib, pastki tetraxordiga nisbatan teskari tuzilishga ega bo`ladi:

$$\underline{1 + 1 + \frac{1}{2} + 1} + \underline{\frac{1}{2} + 1 + 1}$$

→ ←



Aynan major ladini tinglab aniqlash, his etish ko`nikmasini hosil qilish uchun dastlabki vaqtlardagi intonatsion mashqlarda tabiiy major ladi gammasini kuylash bilan birga I pog`onadan tuzilgan major uchtovushligini va shu pog`onadan tuzilgan subdominanta kvartsekstakkordini ko`proq kuylash tavsiya etiladi. Chunki, I pog`onadan kuylanadigan major uchtovushligi katta tersiya bilan boshlanganligi uchun major ohangini beradi, I pog`onadan tuzilgan subdominanta kvartsekstakkordi esa sof kvartaga katta tersiya qo`shilishidan hosil bo`ladi va natijada yuqori ovozlarda katta tersiya intervali hosil bo`ladi. Yuqori ovozlardagi katta tersiya ham major ohangini beradi. Major ladida ishlashni tabiiy major ladidan boshlash tavsiya etiladi. Garmonik major, melodik major va keyinchalik miksolidiy va lidiy kabi xalq lادلari ustida ishlashda tabiiy major ladi o`ziga xos asos bo`lib xizmat qiladi. Mavzuning asosiy maqsadi talabalarga major

tonalliklarini bilish va tushunishni o`rgatishdangina iborat emas. Asosiy vazifa ularda major tonalliklaridagi tovushqatorlarni, ulardagi alohida pog`onalarni, intervallarni va ularning yechilishlarini, akkordlarni, major tonalliklarida yozilgan kuylarni sof ovozda kuylash ko`nikmalarini hosil qilish va malakalarini shakllantirishdir.


NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Major ladi deb qanday ladga aytiladi ?
2. Qanday tovushlarga turg`un tovushlar deyiladi ?
3. Qanday tovushlarga noturg`un tovushlar deyiladi ?
4. Major ladidagi noturg`un tovushlar turg`un tovushlarga qanday yechiladi ?
5. Tabiiy major ladi pog`onalarining interval tuzilishini aytib bering.
6. Garmonik major ladi pog`onalarining interval tuzilishini aytib bering.
7. Melodik major ladi pog`onalarining interval tuzilishini aytib bering.

3-MAVZU: MINOR LADIDA ISHLASH.

Tayanch so`zlar: turg`un tovushlar, noturg`un tovushlar, minor ladi, minor uchtovushligi, kichik tersiya, kichik seksta, katta sekunda, kichik sekunda, tonika tovushi, tonlar, pog`onalar, tabiiy minor, garmonik minor, melodik minor, turg`un va noturg`un tovushlar.

Turg`un tovushlari (I, III, V pog`onalari) minor uchtovushligini hosil qilgan lad minor ladi deyiladi.



Minor ladi eshitilishiga ko`ra mayin va yengilroq ohang bilan yangrashi jihatidan major ladidan farq qilib turadi. Minor ohangini

hosil qiluvchi kichik tersiya va kichik seksta intervallari o`ziga xos hazin, lirik ohangda eshitiladi. Minor ladida ishlashni ham xuddi major ladidagi kabi tabiiy laddan, ya'ni tabiiy minor ladini tinglab aniqlash va his etishni o`rgatishdan boshlash tavsiya etiladi. Tabiiy minor ladining pog`onalarini hosil qiluvchi sekundalar quyidagi tartibda joylashadi: kat.2, kich.2, kat.2, kat.2, kich.2, kat.2, kat.2. Quyidagi misolda ladning turg`un tovushlari ichi bo`yalmagan notalar bilan ko`rsatilgan:

a-moll

tonlar: 1 0,5 1 1 0,5 1 1
 pog`onalar: I II III IV V VI VII (I)

Tabiiy minorda noturg`un tovushlarning turg`un tovushlarga tortilish tartibi tabiiy majorga nisbatan qisman farq qiladi. Tabiiy minorda VII pog`ona I pog`onadan bir ton oraliqda joylashganligi sababli u tonika tovushiga majordagiga nisbatan kuchsizroq tortiladi, lekin VI pog`ona tonika uchtovushligining kvintasi bo`lgan V pog`onaga (oralig`i yarim ton bo`lganligi sababli) majordagiga nisbatan kuchliroq tortiladi, shuningdek, II pog`ona ham (oralig`i yarim ton bo`lganligi sababli) III pog`onaga majordagiga nisbatan kuchliroq tortilib turadi.

Tabiiy minor ladida yonma-yon turgan noturg`un tovushlarning qo`shni turg`un tovushlarga tortilish tizimi quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi:

Pog`onalar: VII I II III IV V VI
 Torlar: 1 ton 1 ton 0,5 ton 1 ton 1 ton 0,5 ton

Minor ladida ishlashni o`rganishda garmonik minor ladiga ham alohida e'tibor qaratish lozim bo`ladi. Chunki, garmonik minorda VII pog`onaning tabiiy minordagiga nisbatan yarim ton ko`tarilishi va natijada uning tonika tovushiga tortilishi kuchayganligi sababli, ushbu minor ladi amaliyotda juda ko`p ishlatiladi.



Garmonik minor ladining xarakterli xususiyatlaridan biri uning VI va VII pog'onalari orasida orttirilgan sekunda intervalining hosil bo'lishidir. Bundan tashqari garmonik minorda VII pog'onaning (dominanta uchtovushligi tersiya tovushining) yarim ton ko'tarilishi ushbu ladda dominanta funksiyasidagi garmoniyaning yorqin major ohangida eshitalishini ta'minlaydi. Yuqoridagi misolga e'tibor qilsak, garmonik minor ladining pastki tetraxordi ikki cheti katta sekundalardan, o'rtasi esa kichik sekundadan iborat ekanligini, yuqorigi tetraxordining ikki cheti kichik sekundalardan, o'rtasi esa orttirilgan sekundadan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin (Misolda pastki va yuqorigi tetraxordlar to'g'ri burchakli qavslar bilan ko'rsatilgan). Tetraxordlarning bunday holatda joylashishi garmonik minorning o'ziga xos ohangda eshitalishiga sabab bo'ladi.

Tabiiy minorga nisbatan VI va VII pog'onalari yarim ton ko'tarilgan minor ladi melodik minor deb nomlanadi. Ushbu ladning xarakterli xususiyatlaridan biri ko'tarilgan VI pog'onaning V pog'onaga kuchsiz tortilishidir. Natijada VI pog'ona ham VII pog'ona orqali I pog'onaga – tonika tovushiga tortilayotganday bo'ladi.



Shu sababli melodik minor ko'proq kuyning yuqoriga tomon harakatida qo'llaniladi. Kuy pastga harakatlanayotganda esa, ko'tarilgan VI va VII pog'onalarining yuqoriga tomon tortilishini kamaytirish uchun, odatda melodik minor o'rniga tabiiy minor ishlatiladi. Musiqa amaliyotida melodik minor ladi tabiiy va garmonik minor ladlariga nisbatan kamroq uchraydi.

Xuddi major ladlaridagi kabi, minor ladhari ustida ishlashda ham turli minor tonalliklaridagi gammalarni kuylatishdan tashqari, ular bilan minor ladhagi akkordlar, xususan uchtovushliklar va ularning aylanmalari ustida alohida ishlash tavsiya etiladi. Garmonik jihatdan minor ohangining hosil bo`lishi odatda kichik tersiya va kichik seksta intervallari bilan bog`liq. Minor ladini tinglab aniqlash, his etish ko`nikmasini hosil qilish uchun dastlabki vaqtlardagi intonatsion mashqlarda I pog`onadan tuzilgan minor uchtovushligini va shu pog`onadan tuzilgan minor subdominanta kvartsekstakkordini ko`proq kuylash tavsiya etiladi. Chunki, I pog`onadan kuylanadigan minor uchtovushligi kichik tersiya bilan boshlanganligi uchun minor ohangini beradi, I pog`onadan tuzilgan subdominanta kvartsekstakkordi esa sof kvartaga kichik tersiya qo`shilishidan hosil bo`ladi va natijada yuqori ovozlarda kichik tersiya intervali hosil bo`ladi. Yuqori ovozlardagi kichik tersiya esa o`z navbatida minor ohangini beradi.

Minor tonalliklaridagi tovushqatorlarni, ulardagi alohida pog`onalarni, intervallarni, akkordlarni, minor tonalliklarida yozilgan kuylarni sof ovozda kuylash ko`nikmalarni hosil qilish va malakalarni shaklantirish uchun barcha minor tonalliklari haqidagi bilimlarni mustaqil tarzda va ongli ravishda egallashni o`rganib borish lozim bo`ladi. Buning uchun barcha minor tonalliklari minor tonalliklari, kvinta davrasidagi tonalliklar ketma-ketligi bo`yicha, birin-ketin o`rganib boriladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Minor ladi deb qanday ladga aytiladi ?
2. Minor uchtovushligi qanday intervallardan iborat bo`ladi ?
3. Minor uchtovushligi aylanmalari qanday intervallardan iborat bo`ladi ?
4. Minor ladhagi noturg`un tovushlar turg`un tovushlarga qanday yechiladi ?
5. Tabiiy minor ladi pog`onalarining interval tuzilishini aytib bering.

6. Garmonik minor ladi pog`onalarining interval tuzilishini aytib bering.


7. Melodik minor ladi pog`onalarining interval tuzilishini aytib bering.

8. Melodik minor odatda kuyning qanday harakatida qo`llaniladi ?

4-MAVZU: PARALLEL VA NOMDOSH TONALLIKLARDA ISHLASH.

Tayanch so`zlar: alteratsiya, kalit, kalit alteratsiya belgilari, tasodifiy alteratsiya belgilari, parallel tonalliklar, umumiy tovushlar, tonika funksiyasi, xromatik yarim ton, diatonik yarim ton, butun ton, nomdosh tonalliklar.

Bir xil kalit alteratsiya belgilariga ega bo`lgan major va minor tonalliklari parallel tonalliklar deyiladi. Parallel tonalliklardagi tovushlar tarkibi bir xil bo`ladi. Masalan, C-dur bilan a-moll, Es-dur bilan c-moll tonalliklari parallel tonalliklardir:



Yuqoridagi misolda ko`rinib turganidek, tabiiy ladda parallel tonalliklardagi barcha tovushlar bir xil bo`ladi. Bunda minor tonalligidagi barcha tovushlar unga parallel bo`lgan major tonalligidagi shu tovushlarga nisbatan ikki pog`ona (kichik tersiya.) yuqorida joylashgan bo`ladi. Masalan, do tovushi do-majorda I pog`onada, unga parallel tonallik bo`lgan lya minorda esa III pog`onada joylashgan bo`ladi, re tovushi do-majorda II pog`onada, lya minorda esa IV pog`onada joylashgan bo`ladi va hokazo.

Parallel tonalliklarning tonika uchtovushliklari ikkitadan umumiy tovushlarga ega (berilgan misollarnig uchinchi taktida ularning ichi bo`yalgan). Bu tovushlar major tonalligida tonika uchtovushligining prima tovushi bilan tersiya tovushiga, unga parallel minor tonalligida esa tonika uchtovushligining tersiya tovushi bilan kvinta tovushiga to`g`ri keladi. Har bir tonallikning tonika uchtovushligi o`z tonalligida ham, parallel tonallikda ham uchraydi. Ammo u parallel tonallikda tonika funksiyasini emas, boshqa funksiyani bajaradi. Major tonalligidagi tonika uchtovushligi o`ziga parallel minor tonalligida III pog`ona uchtovushligi bo`lib keladi. Minor tonalligidagi tonika uchtovushligi o`ziga parallel major tonalligida VI pog`ona uchtovushligi bo`lib keladi.

Tonika tovushi (I pog`onasi) bir xil bo`lgan major va minor tonalliklari nomdosh tonalliklar deyiladi. Masalan, do major bilan do minor, sol major bilan sol minor, Lya bemol major bilan lya bemol minor tonalliklari nomdosh tonalliklardir. Tabiiy laddagi major tonalligi bilan unga nomdosh minor tonalligi III, VI va VII pog`onalari bilan bir biridan farq qiladi, ya`ni minor tonalligining III, VI va VII pog`onalari unga nomdosh major tonalligining shu pog`onalardan xromatik yarim ton pastda joylashgan bo`ladi. Garmonik laddagi minor tonalligining faqat III pog`onasi unga nomdosh garmonik major tonalliginng III pog`onasidan xromatik yarim ton pastda joylashgan bo`ladi, qolgan pog`onalari esa bir xil eshitiladi. Nomdosh bo`lgan melodik major bilan tabiiy minor va aksincha, melodik minor bilan tabiiy major tonalliklari ham faqat III pog`onaning minorda majordagiga nisbatan xromatik yarim ton pastda joylashganligi bilan farq qiladi. Ulardagi boshqa pog`onalarning eshitilishi esa bir biridan farq qilmaydi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qanday tonalliklar parallel tonalliklar deyiladi ?
2. Qanday tonalliklar nomdosh tonalliklar deyiladi ?

3. Minor tonalligidagi barcha tovushlar unga parallel bo`lgan major tonalligidagi shu tovushlarga nisbatan qanday oraliqda joylashgan bo`ladi ?
4. Parallel tonalliklarning tonika uchtovushliklari nechtadan umumiy tovushga ega ?
5. Major tonalligidagi tonika uchtovushligi o`ziga parallel minor tonalligida qanday uchtovushlik bo`lib keladi ?
6. Minor tonalligidagi tonika uchtovushligi o`ziga parallel major tonalligida qanday uchtovushlik bo`lib keladi ?
7. Nomdosh tabiiy major bilan tabiiy minor tonalliklari bir-biridan qaysi pog`onalari bilan farq qiladi ?
8. Nomdosh grmonik major bilan garmonik minor tonalliklari bir-biridan qaysi pog`onalari bilan farq qiladi ?

5-MAVZU: TRANSPOZITSIYA QILIB KUYLASH.

Tayanch so`zlar: transpozitsiya, kuy tuzilmasi, inson ovozi diapozoni, cholg`u asbobi diapozoni, tembr, xromatik yarim tonga transpozitsiya, kalitni o`zgartirish yo`li bilan transpozitsiya qilish, biror intervalga ko`chirish yo`li bilan transpozitsiya.

Biror kuy yoki kuy tuzilmasining bir tonallikdan boshqa bir tonallikka ko`chirilishi transpozitsiya deyiladi. Har bir kompozitor o`zi yozayotgan musiqa asarini uning xarakteri va mazmuniga mos bo`lgan tonallikda yozadi. Shunga qaramasdan, ba`zan musiqa asarlarini boshqa tonallikda ijro etish (transpozitsiya qilish) ehtiyoji paydo bo`ladi. Bu ehtiyoj asarni ijro etayotgan inson ovozining yoki cholg`u asbobining diapozoni bilan, tembri bilan bog`liq bo`lishi mumkin. O`quv mashg`ulotlarida esa o`rganish maqsadida ham transpozitsiya qilinadi. Musiqa asari transpozitsiya qilinganda uning ladi o`zgarmaydi, ya`ni, major ladidan faqat major ladiga, minor ladidan faqat minor ladiga transpozitsiya qilish mumkin. Shuningdek, transpozitsiya asarning umumiy xarakteriga, ritmiga, akkordlar tuzilishiga va intervallar munosabatiga ham ta`sir etmaydi.

Transpozitsiya uch xil yo`l bilan amalga oshirilishi mumkin:

1. Asarning nota matnini biror bir intervalga ko`chirish yo`li bilan transpozitsiya qilish. Bu usul bilan transpozitsiya qilishda dastlabki tonallik bilan yangi tonallik tonikalarining orasidagi interval aniqlanadi. So`ngra yangi tonallikning kalit alteratsiya belgilari yoziladi va nota matnidagi barcha tovushlar yuqoriga yoki pastga tomon aniqlangan intervalga ko`chirib, yoziladi. Nota matnida tasodifiy alteratsiya belgilari mavjud bo`lsa, ular yangi tonallikning tuzilishiga mos ravishda o`zgartiriladi. Masalan, biror pog`onani yarim ton ko`tarish uchun diyez, bekar yoki dubl diyez belgilari, pasaytirish uchun esa bemol, bekar yoki dubl bemol belgilari ishlatilishi mumkin. Transpozitsiyaning bu usuli boshqa usullarga nisbatan ancha keng imkoniyatlarga ega.

2. Xromatik yarim tonga transpozitsiya qilish. Bu usulda asarning nota matni o`zgarmaydi va dastlabki tonallikning kalit alteratsiya belgilari o`rniga yangi tonallikning kalit alteratsiya belgilari yoziladi. Masalan, A-dur tonalligidan As-dur tonalligiga transpozitsiya qilish uchun kalit yonidagi A-dur tonalligiga tegishli uchta diyez o`rniga As-dur tonalligiga tegishli to`rtta bemol yoziladi. Natijada nota matnidagi barcha tovushlar xromatik yarim tonga pasayadi yoki xuddi shu tarzda F-dur tonalligidan Fis-dur tonalligiga transpozitsiya qilish mumkin. Bunda kalit yonidagi F-dur tonalligiga tegishli bitta bemol o`rniga Fis-dur tonalligiga tegishli oltita diyez yoziladi. Natijada nota matnidagi barcha tovushlar xromatik yarim tonga ko`tariladi. Agar nota matnida tasodifiy alteratsiya belgilari bo`lsa, ular xuddi 1-usuldagi kabi, yangi tonallikning tuzilishiga mos ravishda o`zgartiriladi.

3. Musiqiy kalitni o`zgartirish usuli bilan transpozitsiya qilishda asardagi notalarning joylari o`zgartirilmagan holda, kalitning o`zi o`zgartiriladi. Kalit alteratsiya belgilari esa notalarni yangi kalit bo`yicha o`qiganda hosil bo`ladigan yangi tonallikka mos ravishda o`zgartiriladi. Masalan, ushbu usulda transpozitsiya qilib, skripka kalitini bas kaliti bilan almashtirsak, skripka kalitida do major tonalligida yozilgan musiqqa asari bas kalitida mi major

tonalligiga transpozitsiya qilinadi. Bunda dastlabki tonallikdagi barcha tovushlar yangi tonallikda pastga tomon kichik tersdetsima intervaliga ko`chadi. Agar nota matnida tasodifiy alteratsiya belgilari mavjud bo`lsa, ular yuqoridagi usullarda ko`rsatilgani kabi, yangi tonallikning tuzilishiga mos ravishda o`zgartiriladi. Yuqoridagi birinchi va ikkinchi usullardan farqli ravishda, bu usuldan foydalanish kam uchraydi va u ijrochidan notalarni har ikkala kalitlarda erkin va tez o`qiy olish malakasini talab qiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Transpozitsiya qilish deb nimaga aytiladi ?
2. Qanday holatlarda musiqa asarlari transpozitsiya qilinadi ?
3. Musiqa asari transpozitsiya qilinganda uning ladi ham o`zgaradimi ?
4. Transpozitsiya necha xil yo`l bilan amalga oshiriladi ?
5. Transpozitsiya qilish yo`llarini misollar bilan izohlab bering.
6. Transpozitsiya asarning ritmiga, akkordlar tuzilishiga, funksiyasiga, tempiga ta'sir etadimi ?

6-MAVZU: ODDIY VA TARKIBLI INTERVALLARNI TOVUSHDAN VA TONALLIKLARDA TUZIB, YECHILISHLARI BILAN KUYLASH.

Tayanch so`zlar: oddiy intervallar, tarkibli intervallar, interval tuzilishi, intervallar aylanmasi, intervallarning yechilishi, ohangdosh intervallar, noohangdosh intervallar, turg`un intervallar, noturg`un intervallar.

Intervallarni o`rganib, o`zlashtirish deganda ularni biror tovushdan yoki biror tonallikda tuzish, chalish, kuylash, tinglab aniqlash, nota matnidagi intervallarni ko`rib, ajrata olish kabi ko`nikma va malakalar tushuniladi. Bu ko`nikma va malakalarga ega bo`lish uchun uzoq muddat mashq qilish talab etiladi. Shuning uchun intervallarni o`zlashtirish texnikasi faqat ushbu mavzudagina emas, balki boshqa mavzularni o`rganish jarayonida

ham takrorlab, mustahkamlab turiladi. Oddiy intervallar bilan talabalar oliy ta'limgacha bo'lgan ta'lim bosqichlarida ham tanishganlar. Ushbu mavzuda intervallarni faqat tovushdan emas, balki berilgan biror tonallikda, tegishli pog'onalardan mustaqil ravishda tuzib, kuylash ham o'rganiladi.

Oddiy intervallarni tovushdan va tonalliklarda tuzib, yechilishlari bilan kuylash talabalarning ladni his etish malakalarini rivojlantiradi. Biror tonallikda intervallarni tuzish, yechilishlari bilan kuylashni o'rganish uchun dastlab intervaldagi tovushlarning berilgan tonallikda qanday funksiyani bajarayotganligi, uning turg'un yoki noturg'un tovush ekanligi aniqlab olinadi. Noohangdosh intervallar ohangdosh intervallarga o'tganda, noturg'un intervallar esa turg'un intervallarga o'tgandagina yechiladi. Ularning yechilishi amaliy misollarni yozib, chalib, kuylab ko'rish orqali o'rganiladi. Noohangdosh va noturg'un intervallarning yechilishi noturg'un tovushlarning turg'un tovushlarga tortilishiga asoslanadi. Shuning uchun ham ularning yechilishini biror bir lad va tonallikda amalga oshirish lozim.

Tabiiy major va garmonik minorda IV pog'onadan, tabiiy minor va garmonik majorda VI pog'onadan hosil bo'ladigan orttirilgan kvarta hamda tabiiy major va garmonik minorda VII pog'onadan, tabiiy minor va garmonik majorda II pog'onadan hosil bo'ladigan kamaytirilgan kvinta intervallari va ularning yechilishidagi farqlar alohida amaliy misollar bilan o'rganiladi.

Noturg'un tovushlarning turg'un tovushlarga tortilishiga ko'ra, orttirilgan kvartaning asosi bir pog'ona pastga, cho'qqisi esa bir pog'ona yuqoriga o'tadi. Natijada u tabiiy major va tabiiy minorda kichik sekstaga, garmonik major va garmonik minorda katta sekstaga yechiladi.

Kamaytirilgan kvintaning yechilishida noturg'un tovushlarning turg'un tovushlarga tortilishiga ko'ra, uning asosi bir pog'ona yuqoriga, cho'qqisi esa bir pog'ona pastga o'tadi. Natijada u tabiiy major va tabiiy minorda katta tersiyaga, garmonik major va garmonik minorda kichik tersiyaga yechiladi.

C-dur tabiiy tabiiy garmonik garmonik

ort.4 kich.6 kam.5 kat.3 ort.4 kat.6 kam.5 kich.3

a-moll garmonik garmonik tabiiy tabiiy

ort.4 kat.6 kam.5 kich.3 ort.4 kich.6 kam.5 kat.3

Boshqa intervallar ham shu tarzda o`rganiladi. Majorda va minorda noohangdosh intervallarning yechilishiga doir misollar:

C-dur

kat.2 kich.3 kat.2 kich.6 kat.7 kat.6 kat.7 kat.3

C-moll

kat.2 kat.3 kat.2 kat.6 kich.7 kich.6 kich.7 kich.3

C-dur

kat.2 kat.3 kat.2 sof 4 kich.7 kich.6 kich.7 sof 5

C-dur

kat.2 kat.3 kat.2 kich.3 sof 1 kich.7 kich.6 kich.7 kat.6 sof 8

C-dur

kat.2 kat.3 kich.6 kat.2 kat.3 kich.3 kat.7 kich.6 kat.3 kat.7 kich.6 kat.6

c-moll

kat.2 kich(kat).3 sof 1 kat.2 kich.3 kich.3 kich.7 kat(kich).7 sof 8 kich.7 kat.6 kat.6

C-dur c-moll

kich.2 kich.3 kat.7 kat.3 kich.2 kat.3 kat.7 kich.6

Mavzuni o`rganishda tabiiy major va tabiiy minor ladlarining V, VII va II pog`onalaridan hosil bo`ladigan kichik septima, garmonik major va garmonik minorning VII pog`onasidan hosil bo`ladigan kamaytirilgan septima intervallari va ularning yechilishiga alohida e`tibor qaratish tavsiya etiladi. Chunki, bu septimalar va ularning yechilishini o`rganish keyingi mavzularda o`tiladigan ladning asosiy septakkordlarini o`rganish uchun zamin, tayyorgarlik bo`lib xizmat qiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qanday intervallar oddiy intervallar deyiladi ?
2. Qanday intervallar tarkibli intervallar deyiladi?
3. Noohangdosh intervallar qanday yechiladi ?
4. Noturg`un intervallar qanday yechiladi ?
5. Noohangdosh va noturg`un intervallarning yechilishi nimaga asoslanadi ?
6. Orttirilgan kvarta tabiiy major va tabiiy minor ladlarida qanday intervalga yechiladi ?
7. Orttirilgan kvarta garmonik major va garmonik minor ladlarida qanday intervalga yechiladi ?
8. Kamaytirilgan kvinta tabiiy major va tabiiy minor ladlarida qanday intervalga yechiladi ?
9. Kamaytirilgan kvinta garmonik major va garmonik minor ladlarida qanday intervalga yechiladi ?

7- MAVZU: XARAKTERLI INTERVALLARNI TOVUSHDAN VA TONALLIKLARDA TUZIB, YECHILISHLARI BILAN KUYLASH.

Tayanch so`zlar: xarakterli intervallar, garmonik major, garmonik minor, orttirilgan sekunda, kamaytirilgan septima, orttirilgan kvinta, kamaytirilgan kvarta, pasaytirilgan VI pog`ona, ko`tarilgan VII pog`ona, dissonans, konsonans.

Ma'lumki, xarakterli intervallar garmonik major va garmonik minor ladlaridagina uchraydi. Xarakterli intervallar to`rtta bo`lib, ular orttirilgan sekunda, kamaytirilgan septima, orttirilgan kvinta va kamaytirilgan kvarta intervallaridir. Ushbu intervallarng hosil bo`lishi garmonik majorda pasaytirilgan VI pog`ona tovushi bilan, garmonik minorda esa ko`tarilgan VII pog`ona tovushi bilan bog`liq. Ya'ni, garmonik majorda xarakterli intervallarning asosi yoki cho`qqisi pasaytirilgan VI pog`onaga to`g`ri keladi, garmonik minorda esa xarakterli intervallarning asosi yoki cho`qqisi ko`tarilgan VII pog`onaga to`g`ri keladi.

Garmonik majorda orttirilgan sekunda intervali pasaytirilgan VI pog`ona bilan VII pog`onalar orasida hosil bo`ladi va 1,5 tonni tashkil etadi. Uning aylanmasi bo`lgan kamaytirilgan septima intervali esa VII pog`ona bilan pasaytirilgan VI pog`ona orasida hosil bo`ladi va 4,5 tonni tashkil etadi. Garmonik minorda orttirilgan sekunda intervali VI pog`ona bilan ko`tarilgan VII pog`ona orasida hosil bo`ladi va 1,5 tonni tashkil etadi. Uning aylanmasi bo`lgan kamaytirilgan septima intervali esa ko`tarilgan VII pog`ona bilan VI pog`ona orasida hosil bo`ladi va 4,5 tonni tashkil etadi. Demak, garmonik majorda ham, garmonik minorda ham orttirilgan sekunda VI pog`onadan, uning aylanmasi bo`lgan kamaytirilgan septima intervali esa VII pog`onadan tuzilar ekan.

Garmonik majorda orttirilgan kvinta intervali pasaytirilgan VI pog`ona bilan III pog`onalar orasida hosil bo`ladi va 4 tonni tashkil etadi. Uning aylanmasi bo`lgan kamaytirilgan kvarta intervali esa III pog`ona bilan pasaytirilgan VI pog`ona orasida hosil bo`ladi va 2 tonni tashkil etadi. Garmonik minorda orttirilgan kvinta intervali III pog`ona bilan ko`tarilgan VII pog`onalar orasida hosil bo`ladi va 4 tonni tashkil etadi. Uning aylanmasi bo`lgan kamaytirilgan kvarta intervali esa ko`tarilgan VII pog`ona bilan III pog`ona

orasida hosil bo`ladi va 2 tonni tashkil etadi. Demak, garmonik majorda orttirilgan kvinta intervali pasaytirilgan VI pog`onadan, uning aylanmasi bo`lgan kamaytirilgan kvarta intervali esa III pog`onadan tuziladi. Garmonik minorda orttirilgan kvinta intervali III pog`onadan, uning aylanmasi bo`lgan kamaytirilgan kvarta intervali esa VII pog`onadan tuziladi.

Barcha dissonans intervallar kabi, xarakterli intervallar ham yechilishni talab qiladi. Odatda orttirilgan va kamaytirilgan intervallar yechilishida ular tarkibidagi noturg`un tovushlar tortilishiga ko`ra turg`un tovushlarga o`tadi. Natijada orttirilgan sekunda intervalining cho`qqisi yuqoriga, asosi esa pastga harakatlanib sof kvartaga yechiladi. Kamaytirilgan septima intervalining yechilishida esa interval cho`qqisi pastga, asosi esa yuqoriga harakatlanib sof kvintaga yechiladi.

Orttirilgan kvintaning yechilishida uning tarkibidagi turg`un tovush o`z o`rnida qoladi, noturg`un tovush esa interval asosida bo`lsa pastga tomon, interval cho`qqisida bo`lsa yuqoriga tomon harakatlanib, yechiladi. Kamaytirilgan kvartaning yechilishida ham uning tarkibidagi turg`un tovush o`z o`rnida qoladi, noturg`un tovush esa interval asosida bo`lsa yuqoriga tomon, cho`qqisida bo`lsa pastga tomon harakatlanib, yechiladi. Natijada orttirilgan kvinta katta sekstaga, uning aylanmasi bo`lgan kamaytirilgan kvarta esa kichik tersiyaga yechiladi.

Masalan:

The image shows two musical staves illustrating interval resolutions. The top staff is for C-dur. garmonik and the bottom staff is for a-moll. garmonik. Both staves show a sequence of intervals: ort.2 (second), sof.4 (fourth), kam.7 (seventh), sof.5 (fifth), ort.5 (fifth), kat.6 (sixth), kam.4 (fourth), and kich.3 (third). Arrows indicate the movement of the notes in each interval to form the next interval in the sequence.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qanday intervallar xarakterli intervallar deyiladi va nima uchun ?
2. Necha xil xarakterli interval bor ?
3. Xarakterli intervallar garmonik majorda qaysi pog`onalardan tuziladi ?
4. Xarakterli intervallar garmonik minorda qaysi pog`onalardan tuziladi ?
5. Orttirilgan sekunda qaysi intervalga va qanday yechiladi ?
6. Kamaytirilgan septima qaysi intervalga va qanday yechiladi ?
7. Orttirilgan kvinta qaysi intervalga va qanday yechiladi ?
8. Kamaytirilgan kvarta qaysi intervalga va qanday yechiladi ?

8-MAVZU: XROMATIK INTERVALLARNI TONALLIKLARDA TUZIB, YECHILISHLARI BILAN KUYLASH.

Tayanch so`zlar: diatonik intervallar, xromatik intervallar, orttirilgan intervallar, kamaytirilgan intervallar, turg`un va noturg`un tovushlar, xromatik intervallarning yechilishi, tonalliklar.

Diatonik interval bo`lgan orttirilgan kvarta bilan kamaytirilgan kvintadan boshqa barcha orttirilgan va kamaytirilgan intervallar xromatik intervallar deyiladi. Xromatik intervallar diatonik intervallarni orttirish yoki kamaytirish orqali hosil bo`ladi. Orttirilgan intervallar sof va katta intervallardan, kamaytirilgan intervallar esa sof va kichik intervallardan hosil bo`ladi. Faqat sof prima intervalinigina (sifat miqdori 0 ton bo`lganligi sababli) kamaytirib bo`lmaydi.

Orttirilgan intervallar sof yoki katta intervalning cho`qqisini yarim ton ko`tarish yoki asosini yarim ton pasaytirish orqali hosil bo`ladi. Natijada orttirilgan intervalning sifat miqdori o`zi hosil


boʻlgan sof yoki katta intervalning sifat miqdoridan 0,5 ton koʻp boʻladi, lekin ularning son miqdorlari bir xilligicha qoladi. Kamaytirilgan intervallar esa sof yoki kichik intervalning choʻqqisini yarim ton pasaytirish yoki asosini yarim ton koʻtarish orqali hosil boʻladi. Natijada kamaytirilgan intervalning sifat miqdori oʻzi hosil boʻlgan sof yoki kichik intervalning sifat miqdoridan 0,5 ton kam boʻladi, lekin ularning son miqdorlari ham bir xilligicha qoladi.



Izoh: yuqoridagi misolda orttirilgan kvarta intervali xromatik interval emas. Bu misolda u bir xil nomdagi intervallar orttirilganda yoki kamaytirilganda, ularning sifat miqdorlari oʻzgargan holda, son miqdorlari oʻzgarmay qolishini koʻrsatish uchun ishlatildi.

Barcha xromatik intervallar noohangdosh intervallar hisoblanadi va ular turgʻun interval boʻla olmaydi. Noohangdosh va noturgʻun intervallarning yechilishini biror lad asosida tahlil etish mumkin, chunki ularning amaldagi qoʻllanilishi noturgʻun tovushlarning turgʻun tovushlarga tortilishiga asoslanadi. Shuning uchun biror xromatik intervalni yechish uchun avval tonallikni aniqlab, ushbu interval qaysi tonallik nuqtai nazaridan tahlil qilinishi lozimligini bilib olish lozimdir. Odatda orttirilgan intervallar yechilganda kengayadi, kamaytirilgan intervallar esa yechilganda torayadi.

Xromatik intervalning har ikkala tovushi noturgʻun tovush boʻlsa, yechilishda bu noturgʻun tovushlar tortilishiga koʻra turgʻun tovushlarga oʻtadi.



Agar xromatik intervalning bitta tovushi turg`un, ikkinchisi noturg`un bo`lsa, yechilishda noturg`un tovush tortilishiga ko`ra turg`un tovushga o`tadi, turg`un tovush esa joyida qoladi yoki boshqa turg`un tovushga (ko`pincha tonika tovushiga.) o`tishi mumkin. Ushbu misollardagi ichi bo`yalmagan notalar turg`un tovushlardir:



NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qanday intervallar diatonik intervallar deyiladi va nima uchun ?
2. Qanday intervallar xromatik intervallar deyiladi ?
3. Orttirilgan intervallar qanday hosil bo`ladi ?
4. Kamaytirilgan intervallar qanday hosil bo`ladi ?
5. Xromatik intervallar turg`un intervalbo`la oladimi ?
6. Xromatik intervalning har ikkala tovushi noturg`un tovush bo`lsa, u qanday yechiladi ?
7. Xromatik intervalning bitta tovushi turg`un, ikkinchisi noturg`un bo`lsa, u qanday yechiladi ?

9-MAVZU: DIATONIK SEKVENSIYALAR TUZIB, KUYLASH.

Tayanch so`zlar: musiqiy tuzilma, sekvensiya, diatonik sekvensiya, sekvensiya zvenolari, sekvensiya motivi, temp, ko`chirish intervali.

Biror musiqiy tuzilmaning pastga yoki yuqoriga siljigan holda takrorlanib kelishi sekvensiya deyiladi. Sekvensiya kuyni bayon

etish va rivojlantirishda keng qo`llaniladigan usullardan biridir. Bir tonallik doirasidan chiqmagan sekvensiya diatonik sekvensiya deyiladi. Sekvensiyaning asosini tashkil etuvchi kuy tuzilmasi va uning siljigan holdagi har bir takrori sekvensiya zvenolari deyiladi. Shuningdek, dastlabki zveno sekvensiya motivi deb ham ataladi.

Sekvensiya zvenolarining har biri motivning melodik shaklini takrorlab turishiga qaramasdan, ulardagi intervallarning sifat miqdori o`zgarib turadi. Zvenolar kamida ikkita turli balandlikdagi tovushlardan iborat bo`ladi. Sekvensiyaning davomiyligi, ya'ni uning nechta zvenodan tashkil topishi ko`proq sekvensiya motivining ichki strukturasi bog`liq bo`ladi. Ko`pincha zvenolar soni 3-4 tadan oshmaydi. Lekin, ularning soni zvenolar hajmiga va tempga ham bog`liq bo`ladi. Masalan, sekin tempdagi asar bo`lsa va zvenolar hajmi kattaroq bo`lsa, ularning soni odatda 3-4 tadan oshmaydi. Asar tez tempda bo`lsa va zvenolar hajmi kichik bo`lsa, ularning soni ancha ko`proq bo`lishi mumkin. Sekvensiyalar kamida ikkita zvenodan tashkil topadi.

Sekvensiya zvenolarining birinchi tovushlari orasida hosil bo`lgan interval ko`chirish intervali deb nomlanadi. Odatda sekvensiyalardagi zvenolar nisbatan yaqin oraliqda bo`lgan (sekunda, tersiya yoki kvarta.) intervallarga ko`chadi. Ayniqsa, sekunda intervaliga ko`chish ko`proq uchraydi. Solfedjio darslarida diatonik sekvensiyalar tuzish va ularni kuylashni o`rganishni aynan shunday sekvensiyalardan boshlash tavsiya etiladi.

Pastga tomon sekundalarga ko`chib harakatlangan sekvensiya:



NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sekvensiya nima ?

2. Qanday sekvensiya diatonik sekvensiya deyiladi ?
3. Qanday tuzilmalarga sekvensiya zvenolari deyiladi ?
4. Qanday tuzilmaga sekvensiya motivi deyiladi ?
5. Sekvensiyaning davomiyligi nimaga bog`liq bo`ladi ?
6. Zvenolar kamida nechta turli balandlikdagi tovushlardan iborat bo`ladi ?
7. Ko`pincha zvenolar soni nechtadan oshmaydi ?

10-MAVZU: UCHTOVUSHLIKLAR VA ULARNING AYLANMALARINI TOVUSHDAN TUZIB, KUYLASH.

Tayanch so`zlar: akkordlar, uchtovushliklar, major uchtovushligi, minor uchtovushligi, kamaytirilgan uchtovushlik, orttirilgan uchtovushlik, ohangdosh va noohangdosh intervallar, uchtovushlarning aylanmalari, sekstakkord, kvartsekstakkord.

Tersiya bo`yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo`lgan uchta tovushdan iborat akkord uchtovushlik deyiladi. Katta va kichik tersiyalardan uchtovushliklarning quyidagi to`rt xil turi hosil bo`ladi:

1. *Major* yoki *katta uchtovushlik* kat.3 va kich.3 dan tuziladi va uning ikki chetidagi tovushlar oralig`i sof 5 intervalini hosil qiladi.
2. *Minor* yoki *kichik uchtovushlik* kich.3 va kat.3 dan tuziladi va uning ikki chetidagi tovushlar oralig`i ham sof 5 intervalini hosil qiladi.
3. *Orttirilgan uchtovushlik* ikkita kat.3 dan tuziladi. Uning ikki chetidagi tovushlar oralig`i ort.5 intervalini hosil qiladi.
4. *Kamaytirilgan uchtovushlik* ikkita kich.3 dan tuziladi. Uning ikki chetidagi tovushlar oralig`i kam.5 intervalini hosil qiladi.

Major va minor uchtovushligi, faqat ohangdosh intervallardan tuzilganligi sababli, ohangdosh uchtovushlik hisoblanadi. Orttirilgan uchtovushlikda noohangdosh interval (ort.5) mavjud bo`lganligi sababli, u noohangdosh uchtovushlik hisoblanadi. Shuningdek, kamaytirilgan uchtovushlikda ham noohangdosh interval (kam.5) mavjudligi sababli, u ham noohangdosh uchtovushlik hisoblanadi.



Akkordlarning, jumladan, uchtovushlikning ham har bir tovushi mustaqil nomga egadir. Uchtovushlikni tonallikning istalgan pog`onasidan tuzish mumkin. Bu pog`ona uning *asosiy tovushi* hisoblanib, 1 raqami bilan belgilanadi va *asosiy tovush* yoki *prima tovushi* deb nomlanadi, keyingisi esa undan tersiya yuqorida joylashadi va u *tersiya tovushi* deb nomlanadi, tersiya tovushi 3 raqami bilan belgilanadi. Uchtovushlikning uchinchi tovushi uning asosiy tovushidan kvinta yuqorida joylashgan bo`lib, u *kvinta tovushi* deb nomlanadi va 5 raqami bilan belgilanadi.

Bu tovushlarning o`rni o`zgarib kelganda ham ularning nomlari o`zgarmaydi.

1. Uchtovushlikning asosiy toni pastda joylashgan bo`lsa, *uchtovushlikning asosiy ko`rinishi* deb ataladi.

2. Agar uchtovushlikning tersiya toni pastda joylashgan bo`lsa, bu akkord uchtovushlikning *birinchi aylanmasi* bo`lib, *sekstakkord* deb ataladi va u 6 raqami bilan belgilanadi.

3. Agar uchtovushlikning kvinta toni pastda joylashgan bo`lsa, bu akkord uchtovushlikning *ikkinchi aylanmasi* bo`lib, *kvartsestakkord* deb ataladi va u 6/4 raqami bilan belgilanadi.

Sekstakkord uchtovushlikning pastki tovushini, ya'ni asosiy tonini bir oktava yuqoriga ko'tarishdan hosil bo'ladi. Kvartsekstakkord esa sekstakkordning pastki tovushini, ya'ni tersiya tonini ham bir oktava ko'tarish orqali hosil bo'ladi:



Biror tonallikda tonika sekstakkordini yoki kvartsekstakkordini tuzish uchun dastlab uchtovushlikning asosiy ko'rinishi aniqlanadi, so'ngra aylanishlar qoidasiga asoslanib, talab qilingan akkord izlanadi. Shuningdek, uchtovushlik va ularning aylanmalarini istalgan biror tovushdan ham tuzish mumkin. Buning uchun quyidagi major va minor uchtovushliklari hamda aylanmalarining interval tuzilishiga doir jadvalni yodlab olish tavsiya etiladi:

- Major uchtovushligi: kat.3 + kich.3.
- Major sekstakkordi: kich.3 + sof 4.
- Major kvartsekstakkordi: sof 4 + kat.3.
- Minor uchtovushligi: kich.3 + kat.3.
- Minor sekstakkordi: kat.3 + sof 4.
- Minor kvartsekstakkordi: sof 4+ kich.3.

Ushbu jadvalni yod bilgach, har qanday tovushdan uchtovushlik yoki uning aylanmalarini osongina tuzish mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qanday tovushlar uchtovushlik deb ataladi ?
2. Uchtovushliklarning qanday turlari bor ?
3. Uchtovushlikning tovushlari qanday nomlanadi ?

4. Uchtovushlikning qaysi aylanmasi sekstakkord deyiladi ?
5. Uchtovushlikning qaysi aylanmasi kvartsekstakkord deyiladi?
6. Uchtovushlikning qaysi aylanmasining pastida tersiya tovushi joylashgan ?
7. Uchtovushlikning qaysi aylanmasining pastida kvinta tovushi joylashgan ?
8. Major uchtovushligining interval tarkibi qanday bo`ladi ?
9. Minor uchtovushligining interval tarkibi qanday bo`ladi ?
10. Major sekstakkordigining interval tarkibi qanday bo`ladi ?
11. Minor sekstakkordining interval tarkibi qanday bo`ladi ?
12. Major kvartsekstakkordigining interval tarkibi qanday bo`ladi ?
13. Minor kvartsekstakkordigining interval tarkibi qanday bo`ladi ?

11-MAVZU: LADNING ASOSIY UCHTOVUSHLIKLARI VA ULARNING AYLANMALARINI TOVUSHDAN VA TONALLIKLARDA TUZIB, YECHILISHLARI BILAN KUYLASH.

Tayanch so`zlar: lad, ibora, motiv, uchtovushliklarning yechilishi, garmonik eshitish, prima tovushi, tersiya tovushi, kvinta tovushi, turg`un va noturg`un tovushlar, noturg`un tovushlarning yechilishi.

Ushbu mavzuni o`zlashtirish uchun musiqiy asar namunalari mazmunini, mantiqiy izchilligini, ulardagi ibora va motivlarning turg`un yoki noturg`un xarakterlarini hamda noturg`un tovushlarning yo`nalishlari va yechilishlarini oldindan his etishni o`rganish lozim. Asosiy uchtovushliklarning nomlari, qaysi pog`onalardan tuzilishi va ularning funksional ahamiyati kabi

nazariy ma'lumotlarni musiqa nazariyasi asoslari fanida o'rganiladi. Solfedjio darsida esa ushbu nazariy ma'lumotlarni amalda qo'llash va his etib kuylash o'rganiladi.

Darsda uchtovushliklarning turlicha yechilishlari, ulardagi noturg'un tovushlarning tortilishiga ko'ra yo'nalishlari amaliy misollar yordamida talabalar tomonidan avval o'qituvchi nazoratida, so'ngra mustaqil tarzda bevosita kuylash orqali bajariladi. Akkordlarni o'zlashtirish va garmonik eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun talabalar tomonidan uchtovushliklarni tuzish va fortepianoda chalish, kuylash juda muhimdir. Bu dars mavzusini yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Tarkibi faqat turg'un tovushlardan iborat bo'lgan akkordgina turg'un akkord bo'lishi mumkin. Ma'lumki, ladning I, III va V pog'onalari turg'un tovushlar hisoblanadi. Tonika uchtovushligining tarkibi faqat turg'un tovushlardan iborat bo'lganligi sababli, u turg'un akkord hisoblanadi. Boshqa barcha akkordlar tarkibida noturg'un tovushlar mavjud bo'lganligi sababli, ular turg'un akkord bo'la olmaydi. Dominanta uchtovushligining tarkibidagi ikkita noturg'un tovushlar uning tersiya va kvinta tovushlari (ladning VII va II pog'onalari) bo'lib, ular tortilishiga ko'ra tonika uchtovushligining prima va tersiya tovushlari (ladning I va III pog'onalari) ga yechiladi. Uning asosiy tovushi (ladning V pog'onasi) esa turg'un tovush bo'lganligi sababli, o'z o'rnida qoladi. Subdominanta uchtovushligining prima va tersiya tovushlari (ladning IV va VI pog'onalari) noturg'un tovushlar bo'lganligi sababli, tortilishiga ko'ra tonika uchtovushligining tersiya va kvinta tovushlari (ladning III va V pog'onalari) ga yechiladi. Subdominanta uchtovushligining kvinta tovushi (ladning I pog'onasi) esa turg'un tovush sifatida o'z o'rnida qoladi.

The image shows two musical staves. The first staff is labeled 'C - dur' and contains six chords: S (C major), T₆ (F major), S₆ (G major), T_{6/4} (D major), S_{6/4} (E major), and T (C major). The second staff is labeled 'a - moll (garmonik)' and contains six chords: D (D major), t_{6/4} (F major), D₆ (G major), t (D major), D_{6/4} (E major), and t₆ (F major).

Ladning asosiy uchtovushliklarini tinglab idrok etish, his etish va kuylashni o`rganish jarayonida bas ovozi eshitib, idrok etishni o`rganish juda muhimdir. Buning uchun talabalar yuqori ovozlarni kuylayotgan paytda o`qituvchi bas ovozi fortepianoda chalib turishi lozim bo`ladi. Talabalar akkordlarni to`laligicha tinglab, ulardagi har bir ovozi eshinishini alohida ajrata olishlariga erishish lozim. Bunda asosiy e`tiborni birinchi navbatda bas ovozi qaratish yaxshi natija beradi. Talabalar odatda o`rta ovozlarni ajratib olishda, alohida kuylashda qiynalishlari mumkin. O`qituvchi fortepianoda o`rta ovozlarni ozgina kuchliroq, ta`kidlab chalish orqali ularga yordam berishi mumkin. Ushbu mavzu materiallarini boshqa darslarda ham takrorlab turish zarur. Chunki bu talabalarning garmonik eshinish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qanday uchtovushliklar asosiy uchtovushliklar deb ataladi ?
2. Qanday akkord turg`un akkord hisoblanadi ?
3. Dominanta uchtovushligining qaysi tovushlari noturg`un tovushlar ?
4. Subdominanta uchtovushligining qaysi tovushlari noturg`un tovushlar ?
5. Dominanta uchtovushligi tonika uchtovushligiga yechilganda undagi tovushlar qanday harakatlanadi ?

6. Subdominant uchtovushligi tonika uchtovushligiga yechilganda undagi tovushlar qanday harakatlanadi ?

7. Ladning asosiy uchtovushliklari va ularning aylanmalarini Iya major, sol-bemol major va ularning parallel minorlarida tuzib, tonika uchtovushligi va uning aylanmalariga yeching.


12- MAVZU: LADNING ASOSIY SEPTAKKORDLARI VA ULARNING AYLANMALARINI TOVUSHDAN VA TONALLIKLARDA TUZIB, YECHILISHLARI BILAN KUYLASH (DOMINANTSEPTAKKORD, YETAKCHI SEPTAKKORD VA SUBDOMINANTSEPTAKKORDLAR).

Tayanch soʻzlar: septakkordlar, ladning asosiy septakkordlari, dominantseptakkord, yetakchi septakkord, subdominantseptakkord, kichik va kamaytirilgan yetakchi septakkord, septakkordlarning yechilishi, umumiy tovushlar.

Ladning asosiy septakkordlari uchta boʻlib, ular dominantseptakkord, yetakchi septakkord va subdominantseptakkord deb ataladi. Ushbu septakkordlarning oʻzaro funksional aloqasi va ladda tutgan oʻrni haqida nazariy va amaliy jihatdan maʼlumot berish oʻta muhim ahamiyatga ega. Bu septakkordlarning ichida eng koʻp ishlatiladigani major va garmonik minorning V pogʻonasidan tuziladigan septakkord boʻlib, u dominantseptakkord (D_7) deb nomlangan. Shuning uchun ushbu mavzuni oʻrganishni aynan mana shu septakkordni oʻrganishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Dastlab dominantseptakkord va uning aylanmalarini oʻtilgan major va minor tonalliklarida tuzish va kuylash oʻrganilishi kerak. Talabalar dominantseptakkord va uning aylanmalarining tuzilishini musiqa nazariyasi fanida oʻrgangan boʻlishlariga qaramasdan, ularga bu akkordlarning tarkibiy tuzilishini nazariy jihatdan yana bir bor tushuntirib, kuylaganda qanday eshitilishini amalda fortepianoda chalib hamda kuylab koʻrsatish lozim boʻladi:




Ma'lumki, dominantseptakkord va uning aylanmalari noturg'un tovushlarning turg'un tovushlarga tortilib turishi xususiyatiga ko'ra yechiladi va natijada dominantseptakkord to'liq yoki to'liqsiz tonika uchtovushligiga, dominantkvintsektakkord bilan dominantterskvartakkord to'liq tonika uchtovushligiga, dominantsekundakkord esa tonika sektakkordiga yechiladi.




Major va garmonik minorning VII pog'onasidan tuzilgan septakkord yetakchi septakkord deb ataladi va VII₇ shaklida belgilanadi. Yetakchi septakkordlar ikki chetki tovushlar orasida hosil bo'ladigan septima intervalning sifat miqdoriga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Tabiiy majorning VII pog'onasidan hosil bo'ladigan septakkordning ikki chetki tovushlari oralig'i kichik septimani tashkil etadi va u kichik yetakchi septakkord (kich.VII₇) deb ataladi. Uning interval tarkibi kich.3+kich.3+kat.3 (kamaytirilgan uchtovushlik+katta tersiya.) intervallaridan iborat.

2. Garmonik major va garmonik minorning VII pog'onasidan hosil bo'ladigan septakkordning ikki chetki tovushlari oralig'i kamaytirilgan septimani tashkil etadi va u kamaytirilgan yetakchi septakkord (kam.VII₇) deb ataladi. Uning interval tarkibi kich.3+kich.3+kich.3 (kamaytirilgan uchtovushlik+kichik tersiya.) intervallaridan iborat.



Yetakchi septakkordning barcha tovushlari noturg`un tovushlardan (VII, II, IV, VI pog`onalar) iborat. Shuning uchun ularning barchasi yechilishni (turg`un tovushlarga o`tishni) talab qiladi. Yetakchi septakkord va uning aylanmalari ham noturg`un tovushlarning turg`un tovushlarga tortilib turishi xususiyatiga ko`ra yechiladi. Odatda ular tersiya tovushi juftlangan tonika uchtovushligi va uning aylanmalariga yechiladi*. Bunda yetakchi septakkord tonika uchtovushligiga, yetakchi kvinsekkord bilan yetakchi terskvartakkord tonika sekstakkordiga, yetakchi sekundakkord esa tonika kvartsekkordiga yechiladi:




Yetakchi septakkord dominantseptakkord bilan uchta umumiy tovushga ega. Shuning uchun yetakchi septakkord va uning aylanmalari dominantseptakkord va uning aylanmalari orqali tonikaga yechilishi ham mumkin. Bunda umumiy tovushlarning uchchalasi ham joyida qoladi, septima tovushi esa bir pog`ona pastga harakatlanib, dominantseptakkordning asosiy tovushiga

* Tonika uchtovushligi va aylanmalarida tersiya tovushini juftlash yechilish paytida parallel kvintalar hosil bo`lmasligi uchun qilinadi.

o`tadi. Natijada VII₇ – D_{6/5} ga, VII_{6/5} – D_{4/3} ga, VII_{4/3} – D₂ ga, VII₂ – D₇ ga o`tadi:



II pog`ona septakkordi subdominanta guruhidagi bosh septakkord bo`lganligi sababli subdominantseptakkord deb ataladi va majorda SII₇, minorda esa sII₇ shaklida belgilanadi. U II pog`onadan tuziladi va tabiiy majorda kich.3+kat.3+kich.3 (minor uchtovushligi+kich.3) intervallaridan tashkil topadi va kichik minor septakkordi deb nomlanadi. Minorda va garmonik majorda esa kich.3+kich.3+kat.3 (kamaytirilgan uchtovushlik+kat.3) intervallaridan tashkil topadi va kichik septakkord (yoki yarim kamaytirilgan septakkord.) deb nomlanadi. Har ikkala holatda ham subdominantseptakkordning ikki chetidagi tovushlar oralig`i kichik septimani hosil qiladi:



Subdominantseptakkord tarkibida 3 ta noturg`un tovush (II, IV, VI pog`onalar) va 1 ta turg`un tovush (1 pog`ona) bor. SII₇ va uning aylanmalari tonikaga yechilganda septima tovushi umumiy tovush sifatida o`z o`rnida qoladi, qolgan uchta noturg`un tovushlari esa ko`pincha ravon harakat bilan yechiladi. Natijada SII₇ T ga yechiladi, SII_{6/5} T ga, tersiya tovushi juftlangan T₆ ga yoki T_{6/4} ga yechiladi. SII_{4/3} T_{6/4} ga, kamroq hollarda T ga yechiladi. SII₂ esa odatda D₆ ga yoki D_{6/5} ga yechiladi va juda kam hollarda T ga yechilishi mumkin:

C-dur

$S_{II_7} T_6$ $S_{II_7} T_6$ $S_{II_{6/5}} T$ $S_{II_{6/5}} T$ $S_{II_{6/5}} T_6$ $S_{II_{6/5}} T_6$ S_6 $S_{II_{4/3}} T_6$ D_2

S_{II_7} va uning aylanmalari ko`pincha dominanta uchtovushligiga o`tishi mumkin. Bunda uning septima va kvinta tovushlari bir pog`onadan pastga, tersiya tovushi bir pog`ona yuqoriga, faqat asosiy S_{II_7} da ikki pog`ona pastga harakatlanadi, asosiy tovushi esa umumiy tovush sifatida o`z o`rnida qoladi. Natijada $S_{II_7} D$ ga, $S_{II_{6/5} D}$ ga, $S_{II_{4/3} D}$ ga, $S_{II_2} D_6$ ga yechiladi:

C-dur
(c-moll)

$S_{II_7} D$ $S_{II_7} D$ $S_{II_{6/5}} D$ $S_{II_{6/5}} D$ $S_{II_{4/3}} D$ $S_{II_{4/3}} D$ $S_{II_2} D_6$ $S_{II_2} D_6$

Shuningdek, S_{II_7} va uning aylanmalari D_7 va uning aylanmalari orqali tonikaga o`tishi ham mumkin:

C-dur (moll)

S_{II_7} $D_{4/3}$ $S_{II_{4/3}} D_7$ $S_{II_6} D_2$ S_{II_2} D_6

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qaysi septakkordlar asosiy septakkordlar deb ataladi ?
2. Dominantseptakkord va uning aylanmalarining qaysi pog`onalardan tuzilishi va ularning interval tarkibini aytib bering.
3. Yetakchi septakkord va uning aylanmalarining qaysi pog`onalardan tuzilishi va ularning interval tarkibini aytib bering.
4. Subdominantseptakkord va uning aylanmalarining qaysi pog`onalardan tuzilishi va ularning interval tarkibini aytib bering.
5. Yetakchi septakkordning qanday turlari bor, ular qanday ladda hosil bo`ladi ?
6. Subdominantseptakkordning qanday turlari bor, ular qanday ladda hosil bo`ladi ?
7. Dominantseptakkord va uning aylanmalari tonikaga qanday tartibda yechilishini biror tonallikda misollar bilan tushuntiring.
8. Yetakchi septakkord va uning aylanmalari tonikaga qanday tartibda yechilishini biror tonallikda misollar bilan tushuntiring.
9. Yetakchi septakkord va uning aylanmalari dominantseptakkord va aylanmalari orqali tonikaga qanday tartibda yechilishini biror tonallikda misollar bilan tushuntiring.
10. Subdominantseptakkord va uning aylanmalari dominantseptakkord va aylanmalari orqali tonikaga qanday tartibda yechilishini biror tonallikda misollar bilan tushuntiring.

13- MAVZU: BIR OVOZLI KUYLAR USTIDA ISHLASH.

Tayanch soʻzlar: bir ovozli kuylar, diksiya, artikulyatsiya, solmizatsiya, ritm, tonallikka sozlanish, oʻlchov, gamma, ichki eshitish qobiliyati, tonika uchtovushligi, subdominanta uchtovushligi, dominanta uchtovushligi.

Bir ovozli kuylar ustida ishlashda asosiy eʼtiborni sof ovozda kuylashga, yangi ritm va oʻlchovlarni, yangi tonalliklarda kuylashni oʻrganishga, kuylaganda yaxshi diksiyaga va artikulyatsiyaga erishishga, kuylanayotgan asarlarning mazmunini tushungan holda, vokal ovozda va ifodali kuylashni oʻrgatishga qaratish lozim. Ish shakllari solmizatsiya, ritm ustida ishlash, notaga qarab kuylash, yoddan kuylash va transpozitsiya qilib kuylash, nazariy tahlil etish kabilardan iborat. Ritmik yoki melodik jihatdan nisbatan qiyinroq kuylarni solmizatsiya qilib kuylatish ham mumkin. Solmizatsiya qilishda ortiqcha shovqin hosil qilmaslik uchun talabalar notalar nomini shivirlab aytishlari va kuylab yubormaslikka harakat qilishlari lozim. Bu usul bilan kuylashda talabalarning turli ritmik turkumlarni toʻgʻri kuylash va tempni bir xilda ushlab turush kabi amaliy koʻnikmalari yanada rivojlanadi.

Mavzuni oʻrganishda notanish kuyni notaga qarab kuylashga katta eʼtibor qaratish zarur. Har bir darsda taxminan 4-5 ta kuyni notaga qarab ijro etish maqsadga muvofiqdir. Bir ovozda kuylash uchun oʻquv qoʻllanmaning amaliy qismidagi misollardan talabalarning tayyorgarlik darajasini eʼtiborga olgan holda, mavzuga mosini tanlab, foydalanish mumkin. Notanish kuyni notaga qarab ijro etishni boshlashdan oldin asarni oʻqituvchi bilan birgalikda qisqagina tahlil etish va tonallikka sozlanib olish lozim boʻladi. Bunda talabalar oʻqituvchining yoʻnaltiruvchi savollariga javob bergan holda, asarni mustaqil tarzda tahlil etadilar. Buning uchun ular asarning oʻlchovini va tempini, asarda ishlatilgan ritmik turkumlarni, tonalligini va tuzilishini aniqlab oladilar. Notanish

asarning tuzilishini o`rganish va tahlil etish, notaga qarab kuylayotganda kuy rivojini oldindan his etish ko`nikmasini hosil qiladi.

Tonallikka sozlanib olish uchun o`qituvchi tonika uchtovushligini yoki tonika tovushining o`zinigina chaladi. Talabalar esa o`qituvchi boshqaruvida, lekin mustaqil ravishda tonallikka sozlanib oladilar. Tonallikka sozlanish har darsda turlicha variantlarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan:

1.) tonika uchtovushligi va aylanmalarini kuylash, dominanta uchtovushligini va uning tonikaga yechilishini kuylash.

2.) Fortepiano jo`rligida yoki jo`rligisiz asar tonalligidagi gammani kuylash, noturg`un tovushlarni va ularning yechilishlarini kuylash.

3.) Tonika uchtovushligini kuylagandan so`ng tabiiy majorning III va VII pog`onalaridan kichik sekundalarni, V pog`onasidan katta tersiya va kichik septimalarni yechilishlari bilan kuylash va hokazo.

Tonallikka sozlanishning asosini noturg`un ohangdagi tovushlarning turg`un ohanglarga o`tishi tashkil etadi. Sozlanishning turli variantlarini o`qituvchi o`rganilayotgan asardagi kuyning o`ziga xos harakatini hisobga olgan holda tanlaydi va unga mazkur kuyning ba`zi elementlarini kiritishi ham mumkin. Ba`zi hollarda talabalarga notaga qarab ijro etilishi lozim bo`lgan notanish kuyni oldin ovoz chiqarmasdan (ichida.) , keyin esa ovoz chiqarib kuylash ham tavsiya etilishi mumkin. Bunday usul talabalarining ichki eshitish qobiliyatini rivojlantirib, kuy rivojini oldindan sezish, mustaqil idrok etish malakasini shakllantiradi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Musiqqa asarlarining tonalliklari qanday aniqlanadi ?
2. Qanday o`lchovlar oddiy o`lchovlar deyiladi ?
3. Qanday o`lchovlar murakkab o`lchovlar deyiladi ?
4. Qanday o`lchovlar aralash o`lchovlar deyiladi ?

5. Oddiy o`lchovli taktlarda cho`zimlar qanday turkumlanadi ?
6. Murakkab va aralash o`lchovli taktlarda cho`zimlar qanday turkumlanadi ?
7. Cho`zimlarni turkumlash qoidalarida qanday istisnolarga yo`l qo`yiladi ?
8. Kuylanayotgan asar tonalligiga sozlanishning qanday variantlarini bilasiz ?

14- MAVZU: IKKI OVOZLI MISOLLAR USTIDA ISHLASH.

Tayanch so`zlar: ikki ovozli kuylar, ansambl, muiqiy soz, ovozlarning parallel harakati, gomofon-garmonik misollar, kontrastlashgan ikki ovozlilik, imitatsiya, kanon, imitatsiya shaklidagi ikki ovozliliklar.

Ikki ovozli misollar ustida ishlash talabalarning ansamblni, musiqiy sozni his etib kuylash ko`nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Shuning uchun ikki ovozli misollar ustida ishlashda jamoa bo`lib kuylash shakli eng muhim ish shakli bo`lib qoladi. Dastlab ikki ovozli asarlarni o`rganishda nisbatan soddaroq ikki ovozliliklarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Chunki, talabalarning bu boradagi tajriba va ko`nikmalari turlicha bo`lishi mumkin. Buning uchun parallel tersiyalar yoki sekstalar bilan harakatlanuvchi yoki unison bilan boshlanib, so`ngra ikki ovozga bo`linib ketuvchi misollarni tanlash tavsiya etiladi.

Talabalarning ikki ovozlilikda kuylash ko`nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagicha tuzilgan misollardan foydalanish mumkin:

- 1.) Ovozlarning parallel harakatidan iborat bo`lgan gomofon-garmonik misollar.
- 2.) Ovozlarini o`zaro kontrastlashgan ikki ovozliliklar.
- 3.) Imitatsiya shaklidagi va turli ritmdagi ikki ovozliliklar.
- 4.) Kanonlar.

Ikki ovozli misollar ustida ishlash jarayonida talabalarda faqat o`zining partiyasini kuylabgina qolmasdan, bir vaqtning o`zida boshqa partiyani ham eshitib, ansamblni his etib, kuylash ko`nikmasini shakllantirish juda muhimdir. Buning uchun talabalar ikkita guruhga bo`linadi va birinchi guruh birinchi ovozni, ikkinchi guruh esa ikkinchi ovozni kuylaydi. Ma`lum bir natijaga erishilgach, ovozlarning o`rni almashtiriladi, ya`ni birinchi guruh ikkinchi ovozni, ikkinchi guruh esa birinchi ovozni kuylaydi. Kuylash jarayonida albatta dirijyorlik qilish shart. O`qituvchi ham dirijyorlik qilib, har bir ovozga o`z vaqtida kuylashini ko`rsatib borishi lozim. Imitatsiya shaklidagi asarlarni kuylashni o`rganishda, ayniqsa, ovozlarning pauzadan keyin kuylanishi lozim bo`lgan hollarda har bir ovozning ritmik jihatdan to`g`ri va sof intonatsiya bilan kuylanishiga ko`proq e`tibor qaratish zarur. Ikki ovozli misollar ustida bunday usul bilan ishlash darsning juda qiziqarli o`tishini ta`minlaydi hamda talabalarning musiqiy ansamblni his etish ko`nikmalarini rivojlantirib, umumiy musiqiy dunyoqarashlarini kengaytiradi.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ikki ovozlilik qanday shakllarda yozilishi mumkin ?
2. Qanday harakat parallel harakat deyiladi ?
3. Qanday ikki ovozlilik o`zaro kontrastlashgan ikki ovozlilik deyiladi ?
4. Qanday ikki ovozlilik imitatsiya shaklidagi ikki ovozlilik deyiladi ?
5. Qanday harakat parallel tersiyalar bilan harakat deyiladi ?
6. Qanday harakat parallel sekstalar bilan harakat deyiladi ?

15- MAVZU: DIKTANT YOZISH (MELODIK - BIR OVOZLI VA IKKI OVOZLI DIKTANT, GARMONIK – INTERVALLI YOKI AKKORDLI DIKTANT, RITMIK DIKTANT, OG`ZAKI DIKTANT VA H.K.)

Tayanch soʻzlar: musiqa diktanti, individual musiqiy qobiliyat, musiqiy xotira, ladni va ritmni his etish, garmoniyani va kuy strukturasi his etish, kuyning ritmik xususiyatlari, melodik harakatlar, ravon va sakrama harakatlar, registrlar.

Musiqa diktantini qanday yozish har bir talabani individual musiqiy qobiliyatiga, yaʼni uning musiqiy xotirasiga, ladni va ritmni his etish darajasiga, melodik harakatni (ravon va sakrama harakatlarni, yuqoriga va pastga yoʻnalgan harakatlarni), garmoniyani hamda kuyning qismlarga (musiqiy tuzilmalarga.) boʻlinishini his etish darajasiga bogʻliq boʻladi.

Musiqa diktanti turlicha shaklda boʻlishi mumkin. Masalan, dastlabki diktantlarni yozishda talabalar bilan diktant kuyi oldindan tahlil qilinishi mumkin. Bunda talabalar oʻqituvchi yordamida kuyning tonalligini va ladini, oʻlchovini, tuzilishini, ritmik xususiyatlarini, melodik harakatlarini tahlil qilishadi va shundan soʻng diktant yozishni boshlashadi. Bunda diktant kuyini tahlil etish uchun odatda 5-10 minut vaqt ajratiladi. Bunday diktant shakli hali diktant yozishni uncha bilmaydigan talabalar uchun qoʻllaniladi yoki diktant kuyida hali talabalar tomonidan oʻrganilmagan musiqiy elementlar uchraganda ishlatiladi.

Diktant yozishning yana bir shakli esa oldindan tahlil qilinmasdan yoziladi. Bunday diktant nisbatan tajribali talabalar uchun boʻlib, u maxsus ajratilgan vaqt davomida yoziladi va necha marta, qancha vaqt intervali oraligʻida chalinishi oʻqituvchi tomonidan belgilanadi. Bunda diktantning kuyi dastlab 2-3 marta ketma-ket chalinadi, bu paytda talabalar kuyni eshitib, eslab qolishga harakat qilishadi. Keyin esa diktant kuyi maʼlum vaqt oraligʻida (masalan, 2-3 minut) takroran chalib turiladi. Bu vaqtda talabalar diktantni tinglab, u chalinmayotgan tanaffuslarda notaga

tushira boshlaydilar, ya'ni yozadilar. Diktant oxirlashgan sayin u kamroq chalinadi.

Diktant yozishni o'rgatishning dastlabki vaqtlarida og'zaki diktant shaklini qo'llash ham yaxshi natija beradi. Talabalarning ichki eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga o'z-o'ziga diktant yozdirishni mustaqil ish sifatida topshirish mumkin. Bunda talaba o'zi ko'p eshitib yurgan tanish kuyni notaga tushiradi va keyin chalib ko'rib, o'zining xatolarini tekshiradi. Shuningdek, oldin notaga qarab kuylangan kuylarni notaga tushirishni ham tavsiya etish mumkin.

Bulardan tashqari, ritmik diktant va garmonik diktant kabi diktant turlari ham musiqqa diktantini to'g'ri yozishni o'rganish uchun yaxshi zamin bo'lib xizmat qiladi. Ritmik diktantda kuyning faqat ritmi yoziladi, garmonik diktantda esa garmonik intervallarning ovozlari oralig'idagi son va sifat miqdori yoki akkord tovushlari orasidagi intervallar oralig'i belgilanadi (garmonik diktant yozish haqida 17-mavzuda batafsil ma'lumot berilgan).

Diktant o'qituvchi tomonidan tekshirilgach, bir talaba tomonidan doskaga yoziladi va talabalar uni a'capella usulida kuylashadi. Talabalarga musiqqa diktantini dastlab birinchi va ikkinchi oktavalari oralig'ida, keyinchalik esa turli registrlarda hamda skripka va bas kalitlarida yozishni o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Diktant kuyi dastlabki marta ijro etilganda uning qaysi jihatlari aniqlanadi ?
2. Musiqqa diktantini yozish qanday shakllarda bo'lishi mumkin ?
3. Og'zaki diktant qanday bajariladi ?
4. Ritmik diktant qanday yoziladi ?
5. Melodik diktant qanday yoziladi ?

6. Garmonik diktant qanday yoziladi ?

7. Ichki eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun yana qanday diktant yozish mustaqil ish sifatida tavsiya etiladi ?

16- MAVZU: XALQ LADLARI USTIDA ISHLASH.

Tayanch soʻzlar: musiqa sanʼati, xalq kuylari va qoʻshiqlari, yetti pogʻonali diatonik ladlar, miksolidiy ladi, lidiy ladi, frigiyladi, doriyladi, gipofrigiyladi, pentatonika, orttirilgan lad, xalq ladlarining xarakterli xususiyatlari.

Musiqa sanʼati asrlar davomida rivojlanib, turli xalqlarda turlicha shakllanib kelgan. Turli xalq kuylari va qoʻshiqlarini tahlil etsak, tabiiy major va tabiiy minor ladlaridan tashqari, boshqa ladlarda yaratilgan kuy-qoʻshiqlarni ham uchratishimiz mumkin. Xalq musiqasida yetti pogʻonali diatonik ladlar koʻp uchraydi. Bu ladlarning tuzilishi ulardagi sekundalarning joylashish ketma-ketligiga koʻra bir-birlaridan hamda tabiiy major va minor ladlaridan farq qiladi. Bunday ladlarning tonika uchtovushligi major yoki minor uchtovushligini hosil qilishiga qarab, ularni major yoki minorning alohida turlari, deb hisoblash mumkin.

Major ladiga kiruvchi va tabiiy majordan farq qiluvchi yetti pogʻonali xalq ladlari ikkita boʻlib, ular miksolidiy va lidiy ladlaridir. Miksolidiy ladi tabiiy major ladidan VII pogʻonasining yarim ton past joylashganligi bilan farq qiladi, lidiy ladi esa tabiiy major ladidan IV pogʻonasining yarim ton baland joylashganligi bilan farq qiladi:



Miksolidiy ladiga xos boʻlgan xarakterli xususiyatlar uning I pogʻonasidan kichik septima intervali hosil boʻlishi va VII

pog`onasining yuqoriga, I pog`onaga qarab juda kuchli tortilmasligi, V pog`onasidan minor uchtovushligi, VII pog`onasidan esa major uchtovushligi hosil bo`lishidir. Lidiy ladining I pog`onasidan orttitirilgan kvarta intervali, II pog`onasidan major uchtovushligi, IV pog`onasidan esa kamaytirilgan uchtovushlik hosil bo`ladi. Miksolidiy ladiga xos kuy namunalari o`zbek xalq musiqasida ham ko`p uchraydi. Lidiy ladi miksolidiy ladiga nisbatan kamroq uchraydi.

Minor ladiga kiruvchi va tabiiy minordan farq qiluvchi yetti pog`onali xalq ladlari ham ikkita bo`lib, ular doriy va frigiyladlaridir. Doriy ladi tabiiy minor ladidan VI pog`onasining yarim ton yuqorida joylashganligi bilan farq qiladi, frigiyladi esa tabiiy minor ladidan II pog`onasining yarim ton past joylashganligi bilan farq qiladi:



Doriy ladiga xos bo`lgan xarakterli xususiyatlar I pog`onasidan katta seksta intervali hosil bo`lishi va VI pog`onasining pastga, V pog`onaga qarab uncha kuchli tortilmasligi, IV pog`onasidan major uchtovushligi, VI pog`onasidan esa kamaytirilgan uchtovushlik hosil bo`lishidir. Frigiyladining I pog`onasidan kichik sekunda intervali, II pog`onasidan major uchtovushligi hosil bo`ladi. Doriy va frigiyladlari o`zbek xalq musiqasida ham ko`p uchraydi.

Xalq ladlarida tabiiy major bilan bir xil tuzilishga ega bo`lgan lad ioniy ladi deb, tabiiy minor bilan bir xil tuzilishga ega bo`lgan lad esa eoliy ladi deb nomlangan. Shuningdek, tabiiy minorga nisbatan II va V pog`onalari yarim ton past joylashgan lad ham mavjud bo`lib, bu lad gipofrigiyladi yoki lokriyladi deb ataladi. Gipofrigiyladining I pog`onasidan kamaytirilgan uchtovushlik hosil bo`ladi.



Xalq musiqalarida tovushqatori katta sekundalar va kichik tersiyalar bo`yicha tuzilgan besh pog`onali lad uchrab turadi. Bunday tuzilishdagi ladlar *pentatonika* deyiladi. Fortepianoning qora klavishlarida, bir oktava oralig`ida birin-ketin eshitilgan barcha tovushlar pentatonikaga misol bo`la oladi. Pentatonikani musiqiy tizim tovushqatorining har qanday asosiy yoki hosila pog`onasidan tuzish mumkin.

Bu lad boshqa lادلardan tovushqatori tarkibida kichik sekundalar (yarim tonliklar) ning yo`qligi bilan farq qiladi. Shuning uchun unda, diatonik lادلardan farqli ravishda, noturg`un tovushlarning keskin tortilish hollari sezilmaydi. Pentatonika ladining pog`onalari uchtonlik hosil qilmaydi.

Katta sekunda va kichik tersiya intervallarining o`rin almashib kelishiga ko`ra, beshta pentatonika hosil bo`lishi mumkin. Eshitilish xarakteriga ko`ra pentatonika lادلarning ba`zilari majorga, ba`zilari esa minorga bir oz yaqinroq turadi.



I-pog`onasidan major uchtovushligi yoki minor uchtovushligi tuzish mumkin bo`lgan pentatonika lادلari nisbatan ko`proq

qo`llaniladi. I-pog`onasidan major uchtovushligi tuzish mumkin bo`lgan pentatonika tabiiy major ladidan IV va VII pog`onalarining yo`qligi bilan farq qiladi va kat.2+kat.2+kich.3+kat.2 intervallar ketma ketligidan iborat bo`ladi. I-pog`onasidan minor uchtovushligi tuzish mumkin bo`lgan pentatonika tabiiy minor ladidan II va VI pog`onalarining yo`qligi bilan farq qiladi va u kich.3+kat.2+kat.2+kich.3 intervallar ketma ketligidan iboratdir. Pentatonika Xitoy, Yapon, Koreys, Mo`g`ul va boshqa xalqlar musiqasi uchun ko`proq xarakterlidir.

Xalq musiqasi doimo professional musiqadagi barcha janrlarning ham asosiy manbai bo`lib kelgan. Jumladan o`zbek klassik musiqasida ham xalq musiqasi ladlarining keng miqyosda qo`llanilganligini ko`rishimiz mumkin. O`zbek xalq musiqiy an`analari hozirgi o`zbek kompozitorlari ijodida ham o`z aksini topmoqda.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Major ladiga kiruvchi va tabiiy majordan farq qiluvchi nechta yetti pog`onali xalq ladlari bor ?
2. Minor ladiga kiruvchi va tabiiy minordan farq qiluvchi nechta yetti pog`onali xalq ladlari bor ?
3. Miksolidiy ladining tuzilishi va xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat ?
4. Lidiy ladining tuzilishi va xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat ?
5. Frigiya ladining tuzilishi va xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat ?
6. Doriy ladining tuzilishi va xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat ?

7. Gipofrigiy ladining tuzilishi va xarakterli xususiyatlari nimalardan iborat ?
8. Pentatonikaning tarkibiy tuzilishi va xarakterli xususiyatlari qanday ?
9. Major pentatonikasi tabiiy majordan nimasi bilan farq qiladi ?
10. Minor pentatonikasi tabiiy minordan nimasi bilan farq qiladi ?

17- MAVZU: GARMONIK SOLFEDJIO – AKKORDLAR KETMA-KETLIKLARI USTIDA ISHLASH.

Tayanch soʻzlar: garmonik solfedjio, solfedjio darslarida emotsional tayyorgarlik, garmonik tahlil, gomogon-garmonik diktant, kadensiya turlari, kuyning tonal rejasi, sekvensiya zvenolari, yarim kadensiya, boʻlingan kadenasiya, akkordlarning zich, keng va aralash joylashuvi.

Solfedjioni oʻqitish metodlarining eng muhim qonuniyatlaridan biri emotsional tayyorgarlikdir. Tinglash va emotsional tayyorgarlik talabalarning ular tinglayotgan musiqa materialini teranroq, chuqurroq tushungan holda his etishlari uchun mustahkam zamin boʻlib xizmat qiladi. Garmonik solfedjio tinglab, garmonik tahlil qiish, toʻrt ovozli gomofon-garmonik diktantlar yozish kabi mashgʻulot turlarini oʻz ichiga oladi.

Garmonik diktantni yozish uchun dastlab talabalarga berilayotgan diktant tonalligi aytilmasdan, faqat uning kalit alteratsiya belgilari aytiladi yoki sozlanish uchun “lya” tovushi beriladi. Talabalar mustaqil ravishda diktantning lad va tonalligini aniqlab, tonallikning tonikasiga sozlanib olishadi, undagi ovozlar sonini va ovozlar harakatining umumiy xarakterini aniqlab olishadi.

Yozilayotgan diktant namunasini umumiy tahlil qilish, uning metr va oʻlchovini, strukturasi, kadensiya turlarini, tonal rejasini, takroriy qismlarni, sekvensiyalarni (agar ular mavjud boʻlsa.) , sekvensiya zvenolarining almashinish xarakterini, ritmning alohida

yorqin xususiyatlarini va boshqalarni aniqlab olish uchun talabalar diktantni 2-3 marta diqqat bilan tinglab ko`rishlari lozim. Ya`ni, ular bevosita diktant yozishni boshlashdan oldin uning umumiy rejasi va strukturasi haqida tasavvur hosil qilishlari kerak. Bu diktantning ichki strukturasiidagi alohida holatlarni anglash va to`g`ri idrok etishni osonlashtiradi.

Diktant yozishni boshlashdan oldin undagi taktlarning sonini aniqlab, ikkala nota yo`lida takt chiziqlari bilan belgilab qo`yish tavsiya etiladi. Buning sababi shundaki, ko`pincha diktantlarning dastlabki va oxirgi davrasi oson esda qoladi. Shuningdek, diktantdagi yarim kadensiya, bo`lingan kadensiya, sekvensiyalar kabi bog`lovchi qismlarni anglab olishga va tegishli taktlarga yozib qo`yishga harakat qilish ham yaxshi samara beradi. Diktantning bunday qismlari uni yozishda tayanch nuqtalari bo`lib xizmat qiladi. Natijada asta-sekin talabalarda diktantni bir boshidan, akkordma-akkord yozmasdan, mana shu tayanch qismlarga tayanib, to`g`ri idrok etgan holda yozish ko`nikmasi hosil bo`ladi. Shu bilan birga diktant yozayotganda ladning tonikasini doimiy ravishda xotirada ushlab turish o`ta muhim shartlardan biridir. Garmonik diktant (shuningdek, melodik diktant ham) mana shu kabi tavsiyalarga asoslangan holda yozilsa, asta-sekin talabalarda diktantlarni tez va to`g`ri yozish malakasi shakllanib boradi.

Diktant ijro etilayotganda talabalar uni yozmasdan, faqat diqqat bilan tinglab, yozilgan qismini tekshirib, yangi garmonik davralarni eslab qolishlari zarur. Diktantni yozishni esa u ijro etilmayotgan tanaffuslarda bajarishlari lozim. Bunda tovushlarni bir vaqtning o`zida tegishli ritmik cho`zimlarda yozish tavsiya etiladi. Diktantning takroriy ijrolari orasidagi tanaffuslar 2-3 minutni tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Diktantning 2-3 marta ijro etilishi jarayonida talabalar uning umumiy xususiyatlarini aniqlab olgach, asosiy e`tiborni akkordlar funksiyasiga va ladning bas ovoziida joylashgan pog`onalarini aniqlashga, so`ngra esa akkordlarning turiga va melodik harakatiga qaratib, melodik harakatni (soprano ovoziini) yozishlari lozim.

Ishning keyingi bosqichida ular akkordlarning joylashuvini, alohida xususiyatlarini, o`rta ovozlarning harakatlarini aniqlab, yozishlari mumkin bo`ladi.

8-12 taktili gomofon-garmonik diktantni yozish uchun taxminan 25-30 minut vaqt ajratiladi. Nisbatan soddaroq va qisqaroq diktantlar uchun shunga muvofiq holda kamroq vaqt ajratish mumkin. Diktant yozish va tinglab tahlil qilish jarayonida musiqiy xotirani har tomonlama rivojlantirishga harakat qilish muhimdir. Musiqiy xotirani va garmonik eshitish qobiliyatini rivojlantiruvchi mashg`ulot turlarini vaziyatga qarab turli variantlarda qo`llash mumkin.

Agar akkordlar zich joylashuvda joylashgan bo`lsa, ularni pastdan yuqoriga qarab (bas, tenor, alt, soprano) kuylash mumkin. Agar akkordlar keng yoki aralash joylashuvda tuzilgan bo`lsa, ularni kuylash uchun kuylovchilarning ovoz diapazoni yetmay qolishi mumkin. Bunday holda akkordlardagi ovozlarni kesishtirgan holda, (siniq arpedjio shaklida) kuylash tavsiya etiladi.

Masalan:

Berilgan akkordlar erkaklar ovozida kuylanishi ayollar ovozida kuylanishi

The image shows a musical staff with two systems. The first system shows two chords: a triad (T) and a dyad (S). The second system shows a vocal line starting with a triad (T) and a dyad (S), with a 'yoki' (or) label above it, followed by a more complex vocal line. Below the staff, there are labels 'T' and 'S' with dashed lines indicating the structure of the chords and vocal line.

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Garmonik solfedjio qanday mashg`ulot turlarini o`z ichiga oladi ?
2. Garmonik diktantni yozishda dastlab diktantning qaysi jihatlari mustaqil ravishda aniqlab olinadi ?
3. Garmonik diktantni 2-3 marta tinglash jarayonida diktantning yana qaysi jihatlari mustaqil aniqlab olinadi ?

4. Garmonik diktantni yozishni boshlashdan oldin yana qanday amallarni bajarish lozim ?
5. Diktantning takroriy ijrolari orasidagi tanaffuslar qancha vaqtni tashkil etishi maqsadga muvofiq ?
6. Diktantni bevosita yozishni qaysi vaqtda bajarish tavsiya etiladi ?
7. 8-12 taktli gomofon-garmonik diktantni yozish uchun taxminan qancha vaqt ajratiladi.?
8. Agar akkordlar keng yoki aralash joylashuvda tuzilgan bo`lsa, ularni qanday kuylash tavsiya etiladi ?

18- MAVZU: MAJOR VA MINOR LADI ASOSIY UCHTOVUSHLIK LARI.


Tayanch so`zlar: ladning asosiy pog`onalari, asosiy uchtovushliklar, tonika uchtovushligi, subdominanta uchtovushligi, dominanta uchtovushligi, turg`un va noturg`un uchtovushliklar, noturg`un uchtovushliklarning turg`un uchtovushliklarga yechilishi.

Ladning asosiy pog`onalaridan, ya'ni I, IV va V pog`onalaridan tuzilgan uchtovushliklar asosiy uchtovushliklar deb ataladi. Asosiy uchtovushliklarning nomi ushbu pog`onalarning nomlaridan olingan: Ladning I pog`onasidan tuzilgan uchtovushlik tonika uchtovushligi ($T_{5/3}$), IV pog`onasidan tuzilgan uchtovushlik subdominanta uchtovushligi ($S_{5/3}$), V pog`onasidan tuzilgan uchtovushlik esa dominanta uchtovushligi ($D_{5/3}$) deb ataladi.

Barcha asosiy uchtovushliklar tabiiy majorda major uchtovushligini (kat.3+kich.3), tabiiy minorda esa minor uchtovushligini (kich.3+kat.3) hosil qiladi. Garmonik majorda VI pog`ona (subdominanta uchtovushligining tersiya tovushi) tabiiy majordagiga nisbatan yarim ton past joylashganligi sababli, subdominanta uchtovushligi minor uchtovushligini hosil qiladi va kichik s harfi bilan belgilanadi. Garmonik minorda esa VII pog`ona (dominanta uchtovushligining tersiya tovushi) tabiiy minordagiga

nisbatan yarim ton yuqorida joylashganligi sababli, dominanta uchtovushligi major uchtovushligini hosil qiladi va katta D harfi bilan belgilanadi.

Tonika uchtovushligi boshqa barcha akkordlarning ichida turg'un ekanligi bilan ajralib turadi, chunki uning tarkibidagi barcha tovushlar turg'un (ladning I, III va V pog'onalari) tovushlardir.



Subdominanta va dominanta uchtovushliklari esa noturg'un uchtovushliklar hisoblanadi, chunki subdominanta uchtovushligining prima va tersiya tovushlari (ladning IV va VI pog'onalari), dominanta uchtovushligining esa tersiya va kvinta tovushlari (ladning VII va II pog'onalari) noturg'un tovushlardir.



Subdominanta va dominanta uchtovushliklari noturg'un bo'lganliklari sababli yechilishga moyil bo'lishadi. Yechilayotganda ular tarkibidagi turg'un tovushlar o'z o'rnida qoladi, noturg'un tovushlar esa tortilishga ko'ra turg'un tovushlarga o'tadi. Bunda subdominanta uchtovushligining noturg'un tovushlari pastga tomon sekundaga, dominanta uchtovushligining noturg'un tovushlari esa yuqoriga tomon sekundaga harakatlanib, turg'un tovushlarga yechiladi*. Natijada subdominanta va dominanta uchtovushliklari hamda ularning aylanmalari quyidagi tartibda tonika uchtovushligiga va uning aylanmalariga yechiladi:

$S_{5/3} - T_6$ ga, $S_6 - T_{6/4}$ ga, $S_{6/4} - T_{5/3}$ ga, $D_{5/3} - T_{6/4}$ ga, $D_6 - T_{5/3}$ ga, $D_{6/4} - T_6$ ga.

* Dominanta va subdominanta akkordlarining yechilishidagi har bir tovushning alohida harakati 11- mavzuda batafsil yoritilgan.

The image displays two musical staves. The first staff, labeled 'C - dur', shows a sequence of six chords: S (C major), T₆ (C major 6th), S₆ (C major 6th), T_{6/4} (C major 6th/4th), S_{6/4} (C major 6th/4th), and T (C major). The second staff, labeled 'a - moll (garmonik)', shows a sequence of six chords: D (D minor), t_{6/4} (D minor 6th/4th), D₆ (D minor 6th), t (D minor), D_{6/4} (D minor 6th/4th), and t₆ (D minor 6th).

NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qaysi uchtovushliklar asosiy uchtovushliklar hisoblanadi va ularning nomlari qayerdan olingan ?
2. Barcha asosiy uchtovushliklar tabiiy majorda va tabiiy minorda qanday uchtovushliklarni hosil qiladi ?
3. Garmonik majorda qaysi asosiy uchtovushlik tabiiy majordagidan farq qiladi va qaysi sababga ko`ra, qanday farq qiladi ?
4. Garmonik minorda qaysi asosiy uchtovushlik tabiiy majordagidan farq qiladi va qaysi sababga ko`ra, qanday farq qiladi ?
5. Qaysi asosiy uchtovushliklar noturg`un uchtovushliklar hisoblanadi va buning sababi nimada ?
6. Dominanta va subdominanta uchtovushliklari tonikaga yechilganda ulardagi tovushlar qanday harakatlanadi ?
7. Dominanta va subdominanta uchtovushliklari hamda ularning aylanmalari qanday tartibda tonika uchtovushligiga va uning aylanmalariga yechiladi?

19- MAVZU: MAJOR VA MINORDAN BIRINCHI DARAJALI O`XSHASH TONALLIKLARGA MODULYATSIYA QILINGAN MELODIK VA GARMONIK MISOLLAR USTIDA ISHLASH.

Tayanch so`zlar: modulyatsiya, birinchi darajali o`xshash tonalliklar, umumiy akkord, vositachi akkord, modulyatsiyalovchi akkord, mukammal kadensiya, modulyatsion alteratsiya, garmonik davra, dominanta tonalligi, subdominanta tonalligi, parallel tonallik, dastlabki tonallik, yangi tonallik.

Modulyatsiya deb, bir tonallikdan boshqa tonallikka o`tish va musiqiy tuzilmaning shu yangi tonallikdagi kadensiya bilan tugallanishiga aytiladi. Odatda modulyatsiyalar mukammal kadensiya bilan xotimalanadi. Yangi tonallikka xos bo`lgan melodik yoki garmonik davra tonallik o`zgarganligi haqida taassurot beradi. Musiqa asaridagi biror tovushning yoki bir necha tovushlarning boshqa tonallikka xos bo`lgan alteratsion o`zgarishi modulyatsiyaning muhim xarakterli belgilaridan biridir. Bunday alteratsiyalar lad alteratsiyasidan farq qiladi va modulyatsion alteratsiya deyiladi. Ko`pincha bunday alteratsiyalangan tovushlar yangi tonallikning VII pog`onasi (yangi tonallikdagi dominanta uchtovushligining tersiya tovushi) ga yoki IV pog`onasi (yangi tonallikdagi dominantseptakkordning septima tovushi) ga to`g`ri keladi. Lekin, garmonik davraning yangi tonallikka xosligi yetarli darajada ifodalangan bo`lsa, modulyatsiya alteratsiyasiz ham amalga oshirilishi mumkin. Bunda yangi tonallikni tasdiqlovchi kadensiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`ladi.

Tonika uchtovushliklari tabiiy yoki garmonik laddagi dastlabki tonallikning pog`onalaridan tuzilishi mumkin bo`lgan tonalliklar ushbu tonallikka birinchi darajali o`xshash tonalliklar hisoblanadi. Birinchi darajali o`xshash tonalliklarning o`zaro yaqinligi uchtovushliklarning o`zgaruvchan funksiyalaridan kelib chiqadi. Tonika uchtovushligidan tashqari barcha major va minor

uchtovushliklari vaqtincha boshqa tonallikning tonikasi vazifasini bajara olishi bunga sabab bo`ladi.

Shunga ko`ra, berilgan dastlabki tonallikka parallel tonallik, dominantanta tonalligi va uning parallel tonalligi, subdominantanta tonalligi va uning parallel tonalligi, shuningdek, garmonik majorda minor subdominantanta tonalligi, garmonik minorda esa major dominantanta tonalligi birinchi darajali o`xshash tonalliklar hisoblanadi. FunkSIONAL modulyatsiya tonalliklarning shu singari o`zaro yaqinligiga asoslanadi. Shu sababli, birinchi darajali o`xshash tonalliklarga modulyatsiya qilinishi ko`proq uchraydi.

Misol tariqasida do major tonalligidan quyidagi birinchi darajali o`xshash tonalliklarga modulyatsiya qilinishi mumkin: Iya minor (parallel tonallik), sol major (dominantanta tonalligi), mi minor (dominantanta tonalligining parallel tonalligi), fa-major (subdominantanta tonalligi), re minor (subdominantanta tonalligining parallel tonalligi), fa minor (garmonik majordagi minor subdominantanta tonalligi). Masalan:

B

C-dur - a-moll C-dur - G-dur
I = III I = IV
C-dur - e-moll C-dur - F-dur
I = VI I = V

C-dur - d-moll
I = VII

C-dur - f-moll
I = V


Lya minor tonalligidan esa quyidagi birinchi darajali o`xshash tonalliklarga modulyatsiya qilinishi mumkin: do major (parallel tonallik), mi-minor (dominanta tonalligi), sol major (dominanta tonalligining parallel tonalligi), re minor (subdominanta tonalligi), fa major (subdominanta tonalligining parallel tonalligi), mi major (garmonik minordagi major dominanta tonalligi). Masalan:

a-moll - C-dur
I = VI

a-moll - G-dur
I = II

a-moll - e-moll
I = IV

a-moll - E-dur
I = IV



NAZORAT UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Modulyatsiya deb nimaga aytiladi ?
2. Nima modulyatsiya haqida taassurot beradi ?
3. Qanday alteratsiya modulyatsion alteratsiya deyiladi ?
4. Modulyatsiya alteratsiyasiz amalga oshirilganda nima hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`ladi ?
Musical score for exercise 226, "Qirg`iz xalq qo`shig`i". The score is written on a single treble clef staff. It begins with a key signature of one flat (Bb) and a 6/8 time signature. The tempo/mood is marked "Andantino". The piece consists of a single melodic line with various rhythmic values and rests, including eighth and sixteenth notes, and rests. The time signature changes to 3/4, then 6/8, and finally 3/4. The piece ends with a double bar line.

227

Allegro

"Chuvash xalq qo`shig`i"

Musical score for exercise 227, "Chuvash xalq qo`shig`i". The score is written on a single treble clef staff. It begins with a key signature of two flats (Bb, Eb) and a 4/4 time signature. The tempo/mood is marked "Allegro". The piece consists of a single melodic line with various rhythmic values and rests, including eighth and sixteenth notes, and rests. The time signature changes to 3/4, then 4/4, and finally 3/4. The piece ends with a double bar line.

228

Sostenuto

"Eston xalq qo`shig`i"

Musical score for exercise 228, "Eston xalq qo`shig`i". The score is written on a single treble clef staff. It begins with a key signature of two flats (Bb, Eb) and a 4/4 time signature. The tempo/mood is marked "Sostenuto". The piece consists of a single melodic line with various rhythmic values and rests, including eighth and sixteenth notes, and rests. The time signature changes to 3/4, then 4/4, and finally 3/4. The piece ends with a double bar line.

229

Moderato

"Litva xalq qo`shig`i"

Musical score for exercise 229, "Litva xalq qo`shig`i". The score is written on a single treble clef staff. It begins with a key signature of one sharp (F#) and a 3/4 time signature. The tempo/mood is marked "Moderato". The piece consists of a single melodic line with various rhythmic values and rests, including eighth and sixteenth notes, and rests. The time signature changes to 4/4, then 3/4, and finally 4/4. The piece ends with a double bar line.



230

Moderato

"Ukrain xalq qo`shig`i"



231

Moderato

D. Xristov
"Kun o`taveradi"



Presto



232

Andantino

"Rumin xalq qo`shig`i"



233
M.M. ♩=102
Segoh maqomidan Garduni Segoh

234
Andante
R. Hamroyev
"Skripka va orkestr uchun konsert"

235
Allegro
M. Bafoyev
"Nodira" baletidan

236

Jonli

Navro`zi Xoro I - taronasi

237

Muloyim

Saraxbori Rost II - taronasi

238

Ulug`vor

Xorazm Chorgohi

239

M.M. ♩ = 84 - 88

Buzruk maqomidan Nasrulloiy

Musical score for exercise 239, 'Buzruk maqomidan Nasrulloiy'. It consists of four staves of music. The first staff is a treble clef with a key signature of one flat and a complex time signature that changes between 2/4, 4/4, 3/4, and 2/4. The second staff continues the melody. The third and fourth staves provide a bass line accompaniment in a 12/4 time signature.

240

M.M. ♩ = 84 - 88

Navo maqomidan Gardun

Musical score for exercise 240, 'Navo maqomidan Gardun'. It consists of three staves of music. The first staff is a treble clef with a key signature of one flat and a time signature that changes between 2/4, 3/4, and 2/4. The second and third staves provide a bass line accompaniment in a 3/4 time signature.

241

T. Jalilov

"Ayurmish"

Musical score for exercise 241, 'Ayurmish' by T. Jalilov. It consists of two staves of music. The first staff is a treble clef with a key signature of one flat and a time signature that changes between 3/4, 3/8, 3/4, 3/8, 3/4, 3/8, and 3/4. The second staff provides a bass line accompaniment in a 3/8 time signature. A dynamic marking of *mf* is present at the beginning of the first staff.

IKKI OVOZLILIK

242 Jonli V. Kalinnikov "Turna"
mp

243 Vivace N. Rimskiy-Korsakov "Qorqiz"

244 Allegro Ukraincha

245 Andante Chexcha

246 Allegretto Bolgarcha

mp

mf

247 Moderato Armancha

mp

mf

248 Tez Ukraincha

mf

mf

248 Tez Ukraincha

mf

mf

249 Moderato Estoncha

p *mp* *rallentando* *p* *pp*

250 Largo Litvacha

mf

251 Allegro M. Ippolitov-Ivanov
"Dehqonlar bazmi"

mf

252 Moderato F. Shubert
"Nemischa raqs"

p *fp* *fp* *fp*

253 Moderato Amerikaliklar qo`shigi

254 Moderato Finlar qo`shig`i

GARMONIK SOLFEDJIO

255

256

257

258

259



260



261



262



263



264



265

Musical score for exercise 265, featuring a treble and bass clef with a key signature of one sharp (F#) and a common time signature (C). The piece consists of a series of chords and intervals across four measures.

266

Musical score for exercise 266, featuring a treble and bass clef with a key signature of two flats (Bb, Eb) and a common time signature (C). The piece consists of a series of chords and intervals across four measures.

267

Musical score for exercise 267, featuring a treble and bass clef with a key signature of one sharp (F#) and a 3/4 time signature. The piece consists of a series of chords and intervals across four measures.

268

Musical score for exercise 268, featuring a treble and bass clef with a key signature of two sharps (F#, C#) and a common time signature (C). The piece consists of a series of chords and intervals across four measures.

269

Musical score for exercise 269, featuring a treble and bass clef with a key signature of two flats (Bb, Eb) and a common time signature (C). The piece consists of a series of chords and intervals across four measures.

270

Musical score for measures 270-271. The score is written for piano in 2/4 time with a key signature of two sharps (F# and C#). The right hand features a melodic line with eighth and sixteenth notes, while the left hand provides a harmonic accompaniment with chords and moving bass lines.

271

Musical score for measures 271-272. The notation continues from the previous system, showing the melodic and harmonic development in the right and left hands.

272

Musical score for measures 272-273. The right hand has a more active melodic line with some accidentals, and the left hand continues with a steady accompaniment.

273

Musical score for measures 273-274. The piece concludes with a final cadence in both hands, featuring sustained chords and a clear resolution.

274

The image shows a musical score for piano, consisting of two systems of staves. The first system has four measures, and the second system has four measures. The music is in a minor key and 4/4 time. The notation includes treble and bass clefs, a key signature of one flat, and a time signature of 4/4. The first system features a melody in the right hand and a bass line in the left hand. The second system continues the melody and bass line, with some chords and rests.

METODIK TAVSIYALAR

Solfedjio fanining o`quv dasturi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Vokal-intonatsion mashqlar.
- Kuylarni solfedjio qilib kuylash.
- Metr va ritmni his etishni o`rgatish.
- Musiqiy idrokni tarbiyalash (eshitib, tahlil qilish).
- Musiqa diktanti.
- Ijodiy malakalarni shakllantirish.
- Nazariy ma'lumotlar.

Musiqiy eshitish qobiliyatining, musiqiy xotiraning hamda musiqiy idrokning garmonik rivojlanishi solfedjio fani dasturida ko`zda tutilgan barcha tarkibiy qismlarning o`zaro uyg`unlashgan holda bajarilishi natijasida amalga oshirilishi mumkin. Bunda solfedjio qilib kuylash, melodik, garmonik va ritmik tahlil hamda musiqa diktanti yetakchi o`rinlarni egallaydi. Dars jarayonida talabalar tomonidan o`zlashtirilayotgan nazariy ma'lumotlar albatta amaliy mashg`ulotlar bilan bog`langan bo`lishi zarur. Amaliy mashg`ulotlarda o`zlashtiriladigan bilim va malakalar nazariy bilimlar bilan o`z vaqtida asoslanishi natijasida talabalar har bir o`quv materialini ongli ravishda, mustaqil fikrlagan holda idrok etishga erishadilar.

Namunaviy dasturda ko`rsatilgan mavzularning nomlaridan kelib chiqqan holda, fanning vokal-intonatsion mashqlar va kuylarni solfedjio qilib kuylash tarkibiy qismlari 1-mavzuda, musiqa diktantlarini yozish uslublari esa qisman 1-mavzuda, shuningdek, 15- va 17-mavzularda batafsil yoritib berildi. Quyida solfedjio fanining boshqa tarkibiy qismlari haqida qisqacha ma'lumot beriladi:

Metr va ritmni his etishni o`rgatish xuddi lad-intonatsion ohanglarni his etishni o`rgatish kabi o`ta zarur mashg`ulotdir. Metr-ritm hissini shakllantirish uchun darsning har qanday qismidan foydalansa bo`ladi va foydalanish zarur. Biroq, metr-ritm hissini

yaxshi shakllantirish uchun alohida mashqlar o`tkazish talab etiladi. Bunday mashqlar ritmik mashqlar deb ataladi. Ma`lumki, insonning ritm tuyg`usi harakat bilan bog`liqdir. Shundan kelib chiqqan holda, ritmik mashqlarni ham ma`lum bir harakatlar bilan bajarish mumkin. Yosh bolalarda bu turli qadam tashlash, qo`llarning turlicha tezlikdagi harakati bilan bajariladi. Masalan, choraktalik cho`zimlar yurish bilan, sakkiztalik cho`zimlar esa yugurish bilan. Talabalar esa bu mashqlarga musiqa ritmiga qalamni partaga urish yoki qarsak chalish bilan jo`r bo`lishlari mumkin. Ritmik mashqlar turli o`lchovlarda va turli ritmlarda bo`lishi va bir-birini takrorlamasligi lozim. Mashqlarni bajarishda “soddadan murakkabga” tamoyiliga amal qilish tavsiya etiladi. Ushbu o`quv qo`llanmaning amaliy qismida turli o`lchov va ritmdagi ritmik mashqlardan talaygina namunalar hamda ularning bajarilishi haqida tavsiyalar berilgan. Metr-ritm hissi nisbatan yaxshi o`zlashtirilgach, talabalar bir qo`llab dirijyorlik qilgan holda, ikkinchi qo`li bilan ritmni qalam bilan taqillatishlari ham mumkin. Umuman, har bir o`qituvchi dars jarayoniga hamda talabalarning o`zlashtirish darajasiga qarab, turlicha ritmik mashqlarni ijodiy tarzda qo`llashi mumkin.

Musiqiy idrokni tarbiyalash musiqa asarlaridagi turli musiqiy holatlarni va tushunchalarni amalda anglash va o`rganish uchun asos bo`lib xizmat qiladi. U talabalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirishda o`ta muhim ahamiyatga egadir. Musiqiy idrokni tarbiyalash o`z ichiga darsning barcha tarkibiy qismlarini qamrab oladi, ya`ni u intonatsion mashqlarda ham, solfedjio qilib kuylashda ham, musiqa diktanti yozayotganda ham va h.k.z. ishtirok etadi. Musiqiy idrokni tarbiyalash uchun eshitish qobiliyatini rivojlantirish ustida muntazam ravishda ish olib borish talabaga ichki eshitish ko`nikmasini, musiqiy xotirani, musiqiy anglash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Aynan musiqiy idrokni tarbiyalash ishi solfedjioni musiqiy amaliyot bilan bog`lovchi vosita hisoblanadi, u talabalar uchun cholg`u asbobida

ijro etayotgan kuyni tahlil etish va ijro etishda talab etiladigan nazariy va amaliy ko`nikma hamda malaka sifatida xizmat qiladi.

Ijodiy malakalarni shakllantirish: darslarni innovatsion shaklda tashkil etishning asosiy maqsadi talabalarga mustaqil fikrlab, ijodiy faoliyat yuritishni o`rgatishdir. Talabalarning ijodiy malakalarini shakllantirish, ularning ijodiy tashabbuslarini rag`batlantirish ularning musiqa asari mazmuniga bo`lgan ongli munosabatini kuchaytirib, har bir talabaning individual ijodiy qobiliyatining yuzaga chiqishiga yordam beradi. Talabalarga beriladigan ijodiy topshiriqlar ularning bilim darajasiga, individual qobiliyatlariga mos darajada bo`lishi kerak. Solfedjio darslarida ijodiy ishning asosiy shakli improvizatsiyadir. Bunda ularga bir kuyning birinchi jumlasini chalib, ikkinchi jumlasini ijod qilib kuylashni yoki biror ritmni chalib, unga kuy bastalashni taklif etish mumkin. Shuningdek, talabalarga biror she`rning bir kupletiga va naqorotiga kuy bastalashni topshirib ko`rish yoki kichik bir kuyni chalib, uni variantlashni topshirish mumkin va h.k.z. Bundan tashqari improvizatsiyani butun guruh ishtirokida jamoa bo`lib ham amalga oshirish mumkin. Umuman, bu borada har bir o`qituvchiga talabalarning bilim darajasiga ko`ra turlicha uslublardan ijodiy foydalanish tavsiya etiladi.

Nazariy ma`lumotlar berish: solfedjio darslarida beriladigan nazariy ma`lumotlar asosan musiqa nazariyasi, garmoniya, polifoniya, musiqa asarlari tahlili kabi fanlar bilan bog`liq ma`lumotlardir. Shuning uchun ham solfedjio darslarini ushbu fanlar bilan bog`lagan holda, integral ravishda tashkil etish fanni o`zlashtirish samaradorligini oshirishda o`ta muhim shartlardan biri hisoblanadi. Bu ma`lumotlar dars jarayonida dars mavzusiga va maqsadiga mos ravishda berib borilishi tavsiya etiladi. Solfedjio darslarida berilayotgan barcha nazariy ma`lumotlar talabalarning musiqiy eshitish qobiliyati va tajribasi bilan uzviy bog`langan bo`lishi lozim. Chunki, yuqorida aytganimizdek, nazariy va amaliy ma`lumotlar har bir darsda bir-biri bilan uyg`unlashgan holda amalga oshirilishi zarurdir.

Nazariy ma'lumotlarni amaldagi badiiy jihatdan yetuk musiqiy material bilan bog`lagan holda tushuntirilsa, talabalarda bu ma'lumotlarni o`rganishga qiziqish yanada kuchayadi, ularning amaliy mashg`ulotlari bilan nazariy bilimlari bir-birini to`ldirib, yanada mustahkamlanadi. Talabalar solfedjio darslarida musiq

asarlari va ularning ayrim qismlarini kuylashadi, yozib olishadi, tahlil qilishadi. Shuning uchun ham ularni asosiy musiq

terminlari bilan, dinamik tuslar, templarning belgilanishi kabi eng zarur nazariy ma'lumotlar bilan o`z vaqtida, mavzuga bog`lagan holda, amaliy misollar vositasida tanishtirib borish solfedjio fanini o`zlashtirishda va umuman, talabalarning musiqiy bilimlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir.

I L O V A L A R.


Dirijyorlik sxemalari*³

Oddiy o`lchovlar

Ikki hissali




Uch hissali




Murakkab o`lchovlar


To`rt hissali




Olti hissali



To`qqiz hissali




O`n ikki hissali




Murakkab aralash o`lchovlar

Besh hissali



Yetti hissali



³ N. F. Rajabova. Solfedjio: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o`quv qo`llanma, T., "Sharq" – 2004. 5-bet.

* Bu yerda eng ko'p qo'llaniladigan o'lchovlarning shartli dirijyorlik sxemalari berilgan bo'lib, ular o'ng qo'l ishoralari uchun ko'rsatilgan. Chap qo'lda dirijyorlik ishoralarini bajarish uchun o'ng va chap tomonga yo'nalgan ishoralar teskari yo'nalishda bajariladi.

Tonallik va ladga sozlanish uchun tavsiya etiladigan mashqlar

(Do major va lya minor tonalliklari misolida.)

Do major tonalligi

Tabiiy major ladi gammasi

1 T. 1 T. 1/2 T. 1 T. 1 T. 1 T. 1/2 T.

c d e f g a b(h) c

I II III IV V VI VII I

Noturg'un tovushlar va ularning turg'un tovushlarga yechilishi

II (I) IV (III) VI (V) VII (I)

Garmonik major ladi gammasi

VI

Melodik major ladi gammasi

VI VII

Lidiy ladi gammasi

IV

Miksolidiy ladi gammasi



Major pentatonikasi




Major blyuz gammasi




Lya minor tonalligi

Tabiiy minor gammasi



Noturg'un tovushlar va ularning turg'un tovushlarga yechilishi



Garmonik minor gammasi



Melodik minor gammasi




Doriy ladi gammasi




Frigiy ladi gammasi



Minor pentatonikasi



Minor blyuz gammasi



Maqom pardalari⁴

Buzruk



Rost



Navo




Dugoh



Segoh



















Iroq



⁴ O. Ibrohimov, R. Yunusov. "Solfedjio" Toshkent - 2004 y. 190-bet.

Akkordlarning shartli belgilanishi*

t/r	Akkordlarning nomi	Akkordlarning tuzilishi	Akkordlarning harfli-raqamli tizimda ifodalanishi
1	Major uchtovushligi		C
2	Minor uchtovushligi		C(m)
3	Orttirilgan uchtovushlik		C(+5) C(+)
4	Sekstali major uchtovushligi		C(6)
5	Sekstali minor uchtovushligi		C(m6)
6	Katta major septakkordi		C(maj) (M) (MA) (Δ) (+7)
7	Katta minor septakkordi		C(m+7) (mM) (-Δ)
8	Kichik major septakkordi		C(7)
9	Kichik minor septakkordi		C(-) (m7) M1
10	Kamaytirilgan kvintali kichik septakkord		C(m7 -5) (m7 b5) (ø)
11	Kamaytirilgan septakkord		C(dim) (o)
12	Kvartali septakkord		C(7sus4) (7,4)
13	Pasaytirilgan kvintali kichik major septakkordi		C(7-5) (7 b5)
14	Ko'tarilgan kvintali kichik major septakkordi		C(7+5) (aug)
15	Orttirilgan kvintali katta septakkord		C(Maug) (maj7+5) (#7 #5)
16	Katta major nonakkordi		C9

* Ilovada nisbatan ko'proq qo'llaniladigan akkordlarning harfli-raqamli ifodalanishi ko'rsatilgan

TESTLAR

1. Uchtovushlik deb nimaga aytiladi ?
 - a.) Tersiya bo`yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo`lgan 5 ta tovushdan iborat akkord.
 - b.) Katta va kichik tersiyadan iborat akkord.
 - c.) Tersiya bo`yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo`lgan 3 ta tovushdan iborat akkord.
 - d.) Kvarta bo`yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo`lgan 3 ta tovushdan iborat akkord.
2. Major uchtovushligi deb qanday uchtovushlikka aytiladi ?
 - a.) Tersiya bo`yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo`lgan 3 ta tovushdan iborat akkord.
 - b.) Kichik va kichik tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
 - c.) Katta va kichik tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
 - d.) Kichik va katta tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
3. Minor uchtovushligi deb qanday uchtovushlikka aytiladi ?
 - a.) Tersiya bo`yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo`lgan 3 ta tovushdan iborat akkord.
 - b.) Kichik va kichik tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
 - c.) Katta va kichik tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
 - d.) Kichik va katta tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
4. Orttirilgan uchtovushlik deb qanday uchtovushlikka aytiladi ?
 - a.) Kichik va katta tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
 - b.) Katta va kichik tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
 - c.) Katta va katta tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
 - d.) Kichik va kichik tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
5. Kamaytirilgan uchtovushlik deb qanday uchtovushlikka aytiladi?
 - a.) Kichik va kichik tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
 - b.) Katta va katta tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
 - c.) Katta va kichik tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
 - d.) Kichik va katta tersiyadan tuzilgan uchta tovushdan iborat akkord.
6. Orttirilgan uchtovushlikni qaysi ladning pog`onalaridan hosil qilish mumkin?
 - a.) Tabiiy major va garmonik minor ladlari

- b.) Tabiiy minor va melodik minor ladlari.
c.) Garmonik major va garmonik minor ladlari.
d.) Melodik major va garmonik minor ladlari.
7. Kamaytirilgan uchtovushlik tabiiy majoring qaysi pog`onasidan tuziladi ?
a.) V pog`onasidan.
b.) VII pog`onasidan.
c.) II pog`onasidan.
d.) IV pog`onasidan.
8. Kamaytirilgan uchtovushlik tabiiy minoring qaysi pog`onasidan tuziladi ?
a.) V pog`onasidan.
b.) VII pog`onasidan.
c.) II pog`onasidan.
d.) IV pog`onasidan.
9. Kamaytirilgan uchtovushlik garmonik majoring qaysi pog`onasidan tuziladi ?
a.) V va VII pog`onasidan.
b.) VII va IV pog`onasidan.
c.) II va VII pog`onasidan.
d.) IV va VII pog`onasidan.
10. Kamaytirilgan uchtovushlik tabiiy minoring qaysi pog`onasidan tuziladi ?
a.) V va VII pog`onasidan.
b.) VII va IV pog`onasidan.
c.) II va VII pog`onasidan.
d.) IV va VII pog`onasidan.
11. Musiqaning ifoda vositalari nima deyiladi ?
a.) musiqa elementlari
b.) musiqa asarining hosil bo`lish mezonlari
c.) janr
d.) kuy
12. Qanday intervallar xromatik intervallar deyiladi ?
a.) Garmonik intervallar
b.) Orttirilgan va kamaytirilgan intervallar

- c.) Bir oktavadan keng intervallar
d.) Tarkibli intervallar
13. Davriya tarkibi to`g`ri ko`rsatilgan qatorni toping.
a.) Muqaddima, kadensiya
b.) Jumla, ibora, motiv, submotiv
c.) Jumla, kadensiya, yarim kadensiya
d.) Muqaddima, jummlalar, kadensiya
14. D_7 nechta tovushdan tuziladi ?
a.) 4
b.) 5
c.) 6
d.) 3
15. H-dur va gis-moll nechta alteratsiya belgilariga ega ?
a.) 4
b.) 6
c.) 3
d.) 5
16. Qaysi qatorda $D_{4/3}$ ning intervallar ketma-ketligi to`g`ri ko`rsatilgan ?
a.) kich.3+kich.3+kat.2
b.) kat.2+kat.3+kich.3
c.) kat.3+ kat.2+kich.3
d.) kich.3+kat..2+kat.3
17. Xromatizm yunoncha so`zdan olingan bo`lib, .. degan ma`noni anglatadi.
a.) ladning asosiy pog`onalarini ko`tarish yoki pasaytirish
b.) Bir tonallikdan boshqa bir tonallikka vaqtincha o`tish
c.) Rang, bo`yoq
d.) Bir tovushdan boshqa tovushga tez sirpanib o`tish
18. Si major gammasining alteratsiya belgilari to`g`ri ko`rsatilgan qatorni toping.

- a.) Fa#, do#, re#, sol#, lya#
- b.) Fa#, sol#, re#
- c.) Fa#, do#, sol#, re#, lya#
- d.) Fa#, lya#

19. Intervallar qanday miqdor bilan aniqlanadi?

- a.) Katta va kichik
- b.) O`zgaruvchan
- c.) Uch xil
- d.) Son va sifat

20. Qaysi tonallikda 3 ta alteratsiya belgisi bor?

- a.) D-dur
- b.) Es-Dur**
- c.) E-dur
- d.) A-Dur

21. Qanday lad melodik minor ladi hisolanadi ?

a.) Yuqoriga harakatlanganda tabiiy minor bo`yicha harakatlanib, pastga harakatlanganda tabiiy minorga nisbatan VI va VII pogonalari ko`tariluvchi lad

b.) Yuqoriga harakatlanganda tabiiy minorga nisbatan VI va VII pogonalari ko`tarilib, pastga harakatlanganda tabiiy minor bo`yicha harakatlanuvchi lad

c.) Yuqoriga harakatlanganda tabiiy minorga nisbatan IV va VII pogonalari ko`tarilib, pastga harakatlanganda tabiiy minor bo`yicha harakatlanuvchi lad

d.) Yuqoriga harakatlanganda tabiiy minor bo`yicha harakatlanib, pastga harakatlanganda tabiiy minorga nisbatan IV va VII pogonalari ko`tariluvchi lad

22. D₇ birinchi aylanmasini toping?

- a.) D_{6/5}
- b.) D₂
- c.) t_{5/3}
- d.) D_{4/3}

23. Intervalning eng yuqori tovushi nima deb ataladi ?

- a.) Nona
- b.) Asos
- c.) Unison
- d.) Cho`qqi

24. Tarkibli intervalda oktava orqali tuzilgan kvinta nomini toping

- a.) oktava
- b.) nona
- c.) duodetsima
- d.) kvartdetsima

25. Turg`un akkordlar soni nechta ?

- a.) 1 ta
- b.) 2 ta
- c.) 3 ta
- d.) 4 ta

26. Ovozni bir maromda kuchaytiruvchi belgi nomini ko`rsating.

- a.) Forte
- b.) Piano
- c.) Diminuendo
- d.) Fortissimo

26. Modulyatsiya deb nimaga aytiladi ?

- a.) Asosiy pog`onaning ko`tarilishi yoki pasayishiga
- b.) Musiqqa asari yoki bir qismining bir tonallikda boshlanib, boshqa tonallikda tugashiga
- c.) Musiqqa asari yoki bir qismining bir ladda boshlanib, boshqa ladda tugashiga
- d.) Pog`onadosh tonalliklarning o`zaro munosabatlari tizimiga

27. Major va garmonik minorning V pog`onasidan tuziladi.

- a.) D₇
- b.) Yetakchi septakkord

c.) $S_{6/4}$

d.) S_7

28. $D_{6/5}$ akkord qaysi pog'onadan tuziladi ?

a.) IV

b.) VII

c.) V

d.) II

29. Ikki tovush birin-ketin eshitalishidan qanday interval hosil bo'ladi ?

a.) Garmonik

b.) Noohangdosh

c.) Melodik

d.) Ohangdosh

30. $6/8$ o'lchov qanday o'lchov ?

a.) Oddiy

b.) O'zgaruvchan

c.) Aralash

d.) Murakkab

31. Sinkopa nima ?

a.) kvarta intervali doirasida sekundalar bo'yicha joylashgan 4 ta tovushdan iborat melodik yo'nalish

b.) Oraliq ikki oktavadan yuqori bo'lgan interval

c.) Kuchsiz hissadan boshlangan to'liq bo'lmagan takt

d.) Ritm va metr aksentlarining bir-biriga to'g'ri kelmaganligidan hosil bo'luvchi ritmik ketma-ketlik.

32. Oddiy intervallar nechta ?

a.) 14 ta

b.) 6 ta

c.) 12 ta

d.) 7 ta

33. Har xil oddiy o'lchovlarning qo'shilishidan hosil bo'ladi.

- a.) O`zgaruvchan o`chovlar
 - b.) Murakkab o`chovlar
 - c.) Aralash o`lchovlar
 - d.) Oddiy o`lchovlar
34. Qaysi javobda uch tonlik hosil qiluvchi interval ko`rsatilgan ?
- a.) Ort.4, kam.5
 - b.) Ort.5, kam.4
 - c.) Ort.3, kam.4
 - d.) Ort.2, kam.3
35. Bir turdagi intervallarning xilma-xil eshitilishini intervalning qaysi miqdori belgilaydi ?
- a.) Intervallar engarmonizmi
 - b.) Intervallarning sifat miqdori
 - c.) Intervallarning son miqdori
 - d.) Orttirilgan va kamaytirilgan intervallar
36. Lad tovushqatori pog`onalari qanday raqamlar bilan belgilanadi ?
- a.) Rim raqamlari bilan
 - b.) Oddiy raqamlar bilan
 - c.) Aynan bir qoida mavjud emas
 - d.) Raqam bilan belgilanmaydi
37. Qaysi javobda yondosh tonalliklar berilgan ?
- a.) G dur-E dur
 - b.) C dur-c mol
 - c.) Ges dur-Fis dur
 - d.) A dur-E dur
38. Interval asosining pasaytirilishi natijasida intervalning qaysi turi hosil bo`ladi?
- a.) Orttirilgan interval
 - b.) kamaytirilgan interval
 - c.) Tarkibli interval

d.) Garmonik interval

39. Xalq musiqasi ladlarining qaysi turida V pog`onadan minor uchtovushligi hosil bo`ladi ?

- a.) Doriy
- b.) Lidiy
- c.) Miksolidiy
- d.) Frigiy

40. I pog`onasidan major uchtovushligi hosil qilinadigan pentatonikaning tabiiy majordan farqi nimada ?

- a.) Tabiiy majordagi II va VI pog`onalar bo`lmaydi
- b.) Tabiiy majordagi II va III pog`onalar bo`lmaydi
- c.) Tabiiy majordagi IV va VII pog`onalar bo`lmaydi
- d.) Tabiiy majordagi IV va V pog`onalar bo`lmaydi

41. I pog`onasidan minor uchtovushligi hosil qilinadigan pentatonikaning tabiiy minordan farqi nimada ?

- a.) Tabiiy minordagi II va VI pog`onalar bo`lmaydi
- b.) Tabiiy minordagi II va III pog`onalar bo`lmaydi
- c.) Tabiiy minordagi IV va VII pog`onalar bo`lmaydi
- d.) Tabiiy minordagi IV va V pog`onalar bo`lmaydi

42. Quyidagi tonalliklardan qaysi biri C-durga pog`onadosh emas ?

- a.) d-mol
- b.) A-dur
- c.) f-mol
- d.) G-dur

43. Noturg`un tovushlarning turg`un tovushlarga tortilishini keskinlashtiruvchi xromatik o`zgarishlar musiqa nazariyasida nima deyiladi ?

- a.) Yarim tonliklar
- b.) Lad alteratsiyasi
- c.) Hosila pog`onalar
- d.) Xromatik interval

44. Bemolli major tonalliklarining har birida yangi bemol belgisi gammaning nechanchi pog`onasiga tog`ri keladi ?

- a.) VII pog`onasiga
- b.) VI pog`onasiga
- c.) IV pog`onasiga
- d.) II pog`onasiga

45. Tonika uchtovushliklari tabiiy va garmonik ko`rinishda berilgan tonalliklarning pog`onalaridan hosil bo`ladigan tonalliklar qanday tonalliklar ?

- a.) Parallel tonalliklar
- b.) Yondosh tonalliklar
- c.) Pog`onadosh tonalliklar
- d.) Nomdosh tonalliklar

46. Yetakchi septakkord nimaga yechiladi ?

- a.) Kvintasiz asosiy tovushi uchlantirilgan tonika uchtovushligiga yechiladi
- b.) Primasi juftlantirilgan tonika sekstakkordiga yechiladi
- c.) Tertsiyasi juftlantirilgan tonika uchtovushligiga yechiladi
- d.) Primasi juftlantirilgan to`liq tonika uchtovushligiga yechiladi

47. Qaysi javobda kichik yetakchi septakkordning tuzilishi ko`rsatilgan ?

- a.) Kich³+kich³+kich³
- b.) Kich³+kich³+kat³
- c.) Kat³+kich³+kich³
- d.) Kich³+kat³+kich³

48. Kat.6 intervalining aylanishi natijasida qaysi interval hosil bo`ladi ?

- a.) Kich.3
- b.) Kich.6
- c.) Kat.3
- d.) Kat.6

49. Engarmonik teng tonallikni belgilang
- a.) E-dur = e-mol
 - b.) Des-dur = Ces-dur
 - c.) g-mol = B-dur
 - d.) Ges-dur = Fis-dur
50. Qaysi gamma sekundalari quyidagi tartibda joylashadi: kat.2, kat.2, kich.2, kat.2, kich.2, ort.2, kich.2 ?
- a.) Garmonik minor gammasi
 - b.) Garmonik major gammasi
 - c.) Melodik minor gammasi
 - d.) Melodik major gammasi
51. Nomdosh major va minorning garmonik turlari bir biridan qaysi pog`onalari bilan farq qiladai ?
- a.) IV pog`onasi bilan
 - b.) III pog`onasi bilan
 - c.) II pog`onasi bilan
 - d.) VII pog`onasi bilan
52. Kichik septima intervali minor tonalligida qaysi pog`onalardan tuziladi ?
- a.) II, III, V, VI, VII
 - b.) II, IV, VI, VII
 - c.) I, II, IV, V, VII
 - d.) I, IV
53. Xarakterli intervallar berilgan qatorni belgilang.
- a.) sof.4, sof.5, sof.1, sof.8
 - b.) kat.3, kich.3 kat.6, kich.6
 - c.) ort.4, ort.5, kam.7, ort.2
 - d.) ort.2, kam.7, ort.5, kam.4
54. Ritm nima ?
- a.) O`zaro bog`lanib, izchil kelgan tovushlar cho`zimi
 - b.) Kuchli va kuchsiz hissalarining tekis almashinib turishi

c.) Metr hissasi ma'lum bir cho'zimda ifodalanishi

d.) Metrning bir asar davomida o'zgarib turishi

55. Metr nima ?

a.) Kuchli va kuchsiz hissalarining tekis almashinib turishi

b.) Metr xissasi ma'lum bir cho'zimda ifodalanishi

c.) O'zaro bog'lanib kelgan, izchil kelgan tovushlar cho'zimi

d.) O'lchovlarning tekis va notekis almashinib turishi

56. Vazmin templar qatorini belgilang.

a.) Largo, Adagio, Allegro

b.) Moderato, Andantino, Grave

c.) Allegro, Vivo, Vivace

d.) Lento, Grave, Largo

57. Engarmonik teng tonalliklarning kalit alteratsiya belgilari umumiy yig'indisi nechtaga teng ?

a.) 10

b.) 7

c.) 9

d.) 12

58. Minor ladi deb qanday ladga aytiladi?

a.) Turg'un tovushlari birin ketin yoki bir vaqtda eshitilganda kichik yoki minor uchtovushligini hosil qilgan lad

b.) Turg'un tovushlar birin ketin yoki bir vaqtda eshitilganda katta yoki major uchtovushligini hosil qilgan lad

c.) Turg'un tovushlari birin ketin yoki bir vaqtda eshitilganda kichik yoki major uchtovushligini hosil qilgan lad

d.) Turg'un tovushlari birin ketin yoki bir vaqtda eshitilganda minor yoki major uchtovushligini hosil qilgan lad

59. Tabiiy major gammasida sekundalarning joylashuvi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan ?

a.) Kat.2, kich.2, kat.2, kat.2, kich.2, kat.2, kat.2

b.) Kat.2, kat.2, kich.2, kat.2, kat.2, kat.2, kich.2

c.) Kat.2, kat.2, kich.2, kat.2, kich.2, ort.2, kich.2

d.) Kat.2, kat.2, kich.2, kat.2, kich.2, ort.2, kat.2

60. Qanday tonalliklar parallel tonalliklar deyiladi ?

a.) Bir tonikadan tuzilgan major va minor tonalliklari

b.) Balandligi bir xil, lekin yozilishi (nomi) turlicha bo`lgan tonalliklar

c.) Kalit alteratsiya belgilari bir xil bo`lgan major va minor tonalliklari

d.) Garmonik major va minor ladlarida tuzilgan tonalliklar

61. Nomdosh tonalliklar deb qanday tonallikka aytiladi?

a.) Bir xil tonikadan tuzilgan major va minor tonalliklari

b.) Balandligi bir xil, lekin yozilishi (nomi) turlicha bo`lgan tonalliklar

c.) Kalit alteratsiya belgilari bir xil bo`lgan major va minor tonalliklari

d.) Nomlari bir xil bo`lgan tonalliklar

62. Qanday tonalliklar engarmonik teng tonalliklar deyiladi ?

a.) Bir xil tonikadan tuzilgan major va minor tonalliklari

b.) Balandligi bir xil, lekin yozilishi (nomi) turlicha bo`lgan tonalliklar

c.) Kalit belgisi bir xil bo`lgan major va minor tonalliklari

d.) Uchtovushliklari bir xil bo`lgan tonalliklar

63. Tabiiy major va tabiiy minor tonalliklari qanday interval hosil qiladi ?

a.) Xromatik

b.) Melodik

c.) Garmonik

d.) Diatonik

64. Qanday intervallar tarkibli intervallar deyiladi ?

a.) Son miqdori turlicha va eshitilishi bir xil bo`lgan intervallar

b.) Tarkibi bir xil bo`lgan intervallar

- c.) Oraligi bir oktavadan keng intervallar
 - d.) Tarkibi bir biridan farq qiluvchi intervallar
65. Qanday intervallar engarmonik teng intervallar deyiladi ?
- a.) Son miqdori turlicha va eshitalishi bir xil bo`lgan intervallar
 - b.) Tarkibi bir xil bo`lgan intervallar
 - c.) Oraligi bir oktavadan keng intervallar
 - d.) Aylanmalari engarmonik teng bo`lgan intervallar
66. Asosiy uchtovushliklarni toping.
- a.) Tonika, subdominanta, medianta
 - b.) Tonika, subdominanta, dominanta
 - c.) Tonika, dominanta, medianta
 - d.) Tonika, submedianta, dominanta
67. Tabiiy major va tabiiy minor ladlarida orttirilgan kvarta intervali qanday intervalga yechiladi ?
- a.) Xromatik intervalga
 - b.) Katta sekstaga
 - c.) Kichik sekstaga
 - d.) Sof kvintaga
68. Tabiiy major va tabiiy minor ladlarida kamaytirilgan kvinta intervali qanday intervalga yechiladi ?
- a.) Xromatik intervalga
 - b.) Katta tersiyaga
 - c.) Kichik sekstaga
 - d.) Sof kvartaga
69. Garmonik major va garmonik minor ladlarida kamaytirilgan kvinta intervali qanday intervalga yechiladi ?
- a.) Xromatik intervalga
 - b.) Katta tersiyaga
 - c.) Kichik tersiyaga
 - d.) Sof kvartaga

70. Garmonik major va garmonik minor ladlarida orttirilgan kvarta intervali qanday intervalga yechiladi ?

- a.) Xromatik intervalga
- b.) Sof kvintaga
- c.) Kichik sekstaga
- d.) Katta sekstaga

GLOSSARIY

Al't	(lot. alto – baland yuqori ovozi) – xor va vokal ansambllarida bolalar yoki xotin – qizlarning pastki ovozi.
Akkord	Turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo`shilib, yaxlit holda yangrashi.
Analiz	(yunon. analisis – qismlarga bo`lish, tahlil qilish) – musiqqa asarini tuzilishi va estetik jihatidan tahlil qilish.
Ansambl	(fran. ensembl – birgalikda) – vokal yoki cholg`u musiqasi asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi.
Aralash xor	Erkaklar va xotin – qizlardan tuzilgan xor.
Aranjirovka	(fran. oranger – tartibga solish, tuzatish) – bir yoki bir necha cholg`u asboblari uchun yozilgan musiqqa asarini boshqa bir yoki bir necha cholg`u asboblari mo`ljallab tadbiq qilish.
Ashula	keng tarqalgan vokal musiqqa janri bo`lib, unda she`riy va musiqiy obrazlar bir–biriga uyg`unlashgan holda gavdalanadi.
Bariton	(ital. baritono) – bas va tenor tovushlari o`rtasidagi erkaklar ovozi.
Bas	(ital. basso – pastki) – erkaklarning past, yo`g`on ovozi.
Bas kaliti	F (fa) tizimidagi kalitlardan biri bo`lib, unda kichik oktavadagi F (fa) notasi nota yo`lining to`rtinchi chizig`ida turadi.
Bastakor	(fors, tojik basta – bog`lov, kor – ish, mashg`ulot) – monodiya uslubida asarlar yaratuvchi ijodkor.
Diapazon	(yunoncha diapason – maxammasidan) – inson ovozi, cholg`u asbobi, tovushqator, lad, kuy, musiqqa asaridagi alohida ovozi va boshqalarning eng pastki va eng yuqorigi tovushlari oralig`i.

Duet	(nemischa duett, lotincha duo – ikki) 1. Ikki ijrochidan tuzilgan ansambl. 2. Ikki.
Eoliy ladi	Tabiiy minor bilan bir xil tuzilishga ega boʻlgan xalq ladi.
Fermata	ital. fermata – toʻxtash, toʻxtab turish. Biror tovush, akkord yoki pazani aniq chegaralanmagan muddatda choʻzib turish. Fermataning qanday ijro etilishi asar mazmuniga, xarakteriga va uning ijrochi tomonidan qanday talqin etilishiga bogʻliq boʻladi.
Frigiy ladi	Tabiiy minorga nisbatan II pogʻonasi yarim ton past joylashgan xalq ladi
Gamma	(gamma)–laddagi tovushlarning bir tonikadan keying tonikagacha oʻz balandligiga koʻra joylashishi. Oktavadan kam boʻlmagan oraliqdagi lad tovushqatorining bir tekis koʻtarilishi yoki pasayishi.
Garmoniya	(yunoncha harmonia – bogʻlanish, ohangdoshlik) – bir yoʻla eshitilgan bir necha tovushlarning oʻzaro bogʻlanishda kelishidan ohangdoshliklar hosil boʻlishi va bu ohangdoshliklarning oʻzaro mantiqiy izchillik bilan bogʻlangan holdagi ketma ketligi
Gimn	(yunoncha hymnos – tantanali qoʻshiq) – badiiy – ramziy maʼnoga ega asar, qoʻshiq. Gimnning turlari koʻp: davlat gimni, harbiy gimn, siyosiy tashkilotlar gimnlari, biror tarixiy voqeaga, qahramonga xos gimn
Gipofrigiy (lokriy) ladi	Tabiiy minorga nisbatan II va V pogʻonalari yarim ton past joylashgan xalq ladi
Imitatsiya	(lotincha imitatio – oʻxshatish, ergashish, taqlid qilish) – musiqa asaridagi mavzu yoki uning bir qismi chalinganidan soʻng, uning boshqa ovozlarda takrorlanishi.
Interval	(lotincha intervallum - oraliq, masofa) – aniq balandlikka ega boʻlgan ikki tovushning balandlik boʻyicha oraliqʻi. Interval tovushlari bir yoʻla eshitilsa garmonik interval, birin–ketin eshitilsa melodik

	<p>(kuychan) interval deb ataladi. Asosiy intervallar – prima, sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, septima va oktavalardan iborat.</p> <p>Bulardan tashqari qo'shma intervallar ham bor. Bular oktava orqali qo'shilgan – nona, detsima, undetsima, duodetsima, tertsdetsima, kvartdetsima va kvintdetsimalardan iborat bo'lib, tarkibli intervallar deb ataladi.</p>
Janr	Fransuzcha genre – tur, uslub) – musiqqa asarlarining turlari. Asarning tuzilishi, ijrochilarning tarkibi, xarakteri va boshqa holatlar bilan janrlar bir–biridan ajraladi va turlicha bo'ladi.
Jumla	(предложение) – garmonik tugallanish (kadans) ga ega bo'lgan kichik bir musiqqa tuzilmasi. Davriyani tashkil etuvchi asosiy qismlar.
Kapella	(italyancha capella – kichik butxona) – professional xor kollektivi. Kapella simfonik, xalq cholg'u asboblari orkestri yoki yolg'iz fortepiano jo'rligida musiqqa asarlarini ijro etadi.
Koda	(italyancha coda so'zidan olingan bo'lib - dum) ayrim musiqqa asarlarining oxirida keladigan alohida xotimalovchi qism. 2. Kadensiya, kadans terminlari bilan bir xil mazmunda, ya'ni musiqiy tuzilmani tugallovchi garmonik yoki melodik davrani ifodalovchi termin sifatida ham ishlatilishi mumkin.
Kompozitsiya	(lot. – tuzish, tashkil etish) – musiqqa asarining ijodiy holati, tugallangan musiqqa asari.
Kulminatsiya	lotincha – cho'qqi. Kuyning eng yuqorigi nuqtasi, avji. Kulminatsiya musiqqa asarining eng yuqori tovushi bilan kuy dinamikasining eng kuchaygan davri bir vaqtga to'g'ri kelishidan hosil bo'ladi.
Lad	Turg'un va noturg'un tovushlarning o'zaro munosabatlari tizimi, ularning bir tonikaga intilishi.
Major ladi	Turg'un tovushlari major uchtovushligini hosil qiluvchi lad.

Minor ladi	Turg`un tovushlari minor uchtovushligini hosil qiluvchi lad
Metronom	(lot. metron – mezon, nomos – qonun) – musiqa sur`atini o`lchaydigan maxsus asbob.
Musiqa	(yun. musa) – turli tovushlar vositasida badiiy obraz yaratib beruvchi g`oyaviy – emotsional mazmunga ega bo`lgan san`at turi. Kishining ichki his-kechinmalari, hayot taassurotlari, biror fikr yoki mavzuning musiqiy ohanglar bilan ifoda etilishi.
Nota	lotincha, italyanacha – belgi. Musiqiy tovushlarni yozish uchun ishlatiladigan maxsus belgi.
Notatsiya	lotincha yozish, belgilash.
Oktava	lotincha – sakkizinchi. Intervallarning son miqdoriga ko`ra sakkizinchi interval, sakkiz pog`ona oralig`i.
Repertuar	Fran. repertoire - ro`yxat. Biror musiqiy jamoa (yoki teatr jamoasi) tomonidan ijro etiladigan asarlar ro`yxati.
Repetitsiya	(lot. repetio - qaytariq) - mashq, tayyorgarlik.
Repriza	Fran. reprise – qaytarilish. Musiqa asarining biror qismini takroran ijro etishni bildiruvchi maxsus belgi.
Sinkopa	ital. yun. syunkope – qisqartirish. Ritm va metr aksentlarining bir-biriga to`g`ri kelmaganligidan hosil bo`luvchi ritmik ketma-ketlik. Sinkopa biror tovushning kuchsiz hissada boshlanib, o`ziga nisbatan kuchliroq hissada joylashgan o`sha balandlikdagi tovushga ulanib ketishidan hosil bo`ladi.
Soprano	(ital. sopra - yuqorida) – xotin – qizlarning yuqori ovozi. Garmonik to`rt ovozlilikda yuqorigi ovoz.
Takt	lot. taktus – tegish, ta`sir etish. Bir kuchli hissa (birinchi hissa) dan keyingi kuchli hissa (birinchi hissa) gacha bo`lgan oraliq.

Taktoldi (zatakt)	to`la bo`lmagan boshlang`ich takt. Musiqa asarining boshlanishi to`la bir takt hosil qilmasa – taktoldi deb ataladi. Taktoldida notalar birinchi hissadan (kuchli hissadan) boshlanmay, keyingi hissalardan biridan (kuchsiz hissadan) boshlanadi.
Tembr	fran. tembre – qo`ng`iroq, tamg`a, marka, ajratish belgisi, tovush tusi. Inson ovozi yoki biror cholg`u asbobi ovozining aynan o`ziga xos bo`lgan rang-barangligi, sifat xususiyati.
Temp	ital. tempo lot. tempus – vaqt, sur`at. Musiqa asarlarining ijro tezligi, sur`ati.
Tenor	(ital. tenor – ushlab turaman) – erkaklarning yuqori ovozi.
Ton	yun. tonos – zo`r berish, kuchlanish, ta`kidlash. Tovush. 2. Musiqa tovushlari orasidagi ikkita yarim tonga teng bo`lgan oraliq (bir ton).
Tonika	ital. tonika – ta`kidlash. Laddagi I pog`onaning nomi. 2. Ladning birinchi pog`onasidan tuzilgan uchtovushlikning nomi.
Unison	ital unison – bir xil sado, tovush. Bir xil balandlikdagi tovushlarning bir vaqtda eshinishi.
Vokaliz	(fran. vocalise – unli tovush) – ashulachilar so`zsiz aytadigan mashq yoki etyud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T., “O`zbekiston”, - 2018.
2. O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to`g`risida”gi Qonuni. T., - 2020.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” 2018 yil, 5-iyundagi PQ-3775-son qarori. T., - 2018.
4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2018 yil 10 oktyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarini o`quv adabiyotlari bilan ta’minlash to`g`risida”gi 816-son qarori, 4-ilova. T., - 2018.
5. O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan 5111100 - Musiqa ta’limi yo`nalishi talabalari uchun musiqa nazariyasi (musiqa nazariyasi asoslari, solfedjio, garmoniya, musiqa asarlari tahlili) fanidan 2020-2021 o`quv yili uchun tayyorlangan namunaviy dastur. T., - 2020.
6. Mirziyoyev Sh.M. “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova. “2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi”. Xalq so`zi gazetasi. - 2017 yil 8 fevral soni va internet resurs: www.lex.uz.
7. Mirziyoyev Sh.M. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2018 yil, 6-sentyabrdagi Xalqaro maqom san`ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi. T., - 2018.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., “O`zbekiston”, - 2017.
9. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. T., “O`zbekiston”, - 2017.
10. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., “O`zbekiston” NMIU, - 2016.
11. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil

yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. - 2017 yil, 16 yanvar, №11

12. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., "O'zbekiston" NMIU, - 2016.

13. Агаджанов Г. Курс сольфеджио. М., - 1974.

14. Алексеев Б. Гармоническое сольфеджио. М., - 1986.

15. Azizov O. Solfedjio (ko'p ovozli). T., 2007.

16. Блюм Д. Гармоническое сольфеджио. М., - 1991.

17. Давыдова Э. Сольфеджио для 5-го класса ДМШ. М., - 1991.

18. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T., - 2000.

19. Fayziyev O. Rahimov Q. Musiqqa nazariyasi asoslari. T., - 2015.

20. Фридкин Г. Чтение с листа на уроках сольфеджио. М., - 1986.

21. Hamroyev I. Musiqqa diktanti. T., - 1985.

22. Ibrohimov O. Yunusov R. Solfejio darsligi. T., "Musiqqa" - 2006.

23. Ibroximov O. Ibroximov J. Botirov Y. Musiqqa, 4-sinf uchun darslik. T., - 2005.

24. Ibroximjonova G. Yuldoshev U. Musiqqa nazariyasi. T., "Adabiyot uchqunlari" - 2018.

25. Калмыков Б. и Фридкин Г. Сольфеджио. Часть 1. Одноголосие. М., - 1984.

26. Ладухин Н. Одноголосное сольфеджио. М., «Музыка», - 2005.

27. Mark Feezell. Musik Theory Fundamentals – High Yield Musik Theory, vol.1. Copyright – 2011. All Rights Reserved.

28. Michael Pilhofer and Holly Day. "Music Theory for dummies". - Indiana USA - 2007. Wiley Publishing Inc.

29. Matyoqubova S. Solfedjio darslarida ritm mashqlari. T., - 2009.

30. Николаев А. Немецкие народные песни. М., - 1984.

31. Otayev B. Dirijyorlik. T., - 2003.

32. Островский А.Л., Соловьёв Ч., Шокин В.П. Сольфеджио. М., «Музыка» - 2013.

33. Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. (Ma'lumotnoma), T., Musiqqa", - 2007.

34. Rahimov Q. Musiqaning elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami. T., - "O'zbekiston", - 2006.

35. Rahimov Q. Garmoniya bo`yicha mashq va masalalar to`plami “Aloqachi”, - 2005.
36. Rajabova N. Solfedjio. T., – 2004.
37. Ройтерштейн М. Основы теоретического музыкознания. М., «Академа», - 2003.
38. Sami Aziz o`g`li. Garmoniya. T., - “O`zbekiston”, - 2002.
39. Способин И. Двухголосное сольфеджио. М., «Музыка», - 2009.
40. Urmanova L.A. Trigulova A.X. Ibraximjanova G.A. Musiqa nazariyasi. T., Nizomiy nomidagi TDPU. – 2013.
41. Васильева М. Гиндина Г. Фрейндлинг Г. Двухголосное сольфеджио. Второе издание. Л., «Музыка», - 1982.
42. Вахромеев В. Элементарная теория музыки. 1-е издание. М., - 1986.
43. Yo`ldoshev J. Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. T., – 2004.
44. Песни народов мира. Выпуск 6. Издательство «Музыка». М., - 1973.
45. Sharipova G. Musiqa o`qitish metodikasi. T., - 2006

Axborot manbalari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.zivonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-intranet.ped

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. NAZARIY QISM	6
1. Mavzular bo`yicha nazariy ma'lumotlar va metodik tavsiyalar	8
II. AMALIY QISM	65
1. Oddiy o`lchovlar	65
2. 2/4 lik o`lchovlar	65
3. 3/4 lik o`lchovlar	71
4. 3/8 lik o`lchovlar	76
5. Punktir ritm. Sinkopa	80
6. Murakkab o`lchovlar	97
7. 4/4 lik o`lchov	97
8. 6/8, 6/4, 9/8, 12/8 lik o`lchovlar	116
9. Murakkab aralash o`lchovlar	136
10. O`zgaruvchan o`lchovlar	143
11. Ikki ovozlilik	149
12. Garmonik solfedjio	152
III. METODIK TAVSIYALAR	157
IV. ILOVALAR	161
1. Dirijyorlik sxemalari	161
2. Tonallik va ladga sozlanish uchun tavsiya etiladigan mashqalar	162
3. Maqom pardalari	164
4. Akkordlarning shartli belgilanishi	165
5. Testlar	166
6. Glossariy	180
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	185

A series of 20 horizontal black lines, evenly spaced, intended for musical notation or solfège exercises.

JALILOV SHOKIR ISOMIDDINOVICH
MUSIQA NAZARIYASI

(SOLFEDJIO)

O'quv qo'llanma

Muharrir:	U. Yuldoshev
Tex.muharrir:	R.Tolibjonov
Musahhih:	M.Shodiyeva
Badiiy rahbar:	M.Sattorov

Nashriyot litsenziyasi № 022853. 08.03.2022.

Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 05.04.2022. Bichimi 60x84.

Kegli 16 shponli. "Times New Roman" garniture 1/16.

Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'ozi.

Bosma tabog'i 12. Adadi 100. Buyurtma №9.



"BUXORO DETERMINANTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Buxoro shahar Namozgoh ko'chasi 24 uy

Tel.: + 998 98 778 47 27



ISBN 978-9943-8092-7-7



9 789943 809277